

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ S.Abdullayev

“\_\_\_” \_\_\_\_\_2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi IV kurs 401-guruh  
talabasi “**Muqimiy she‘riyatida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi**”  
mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ f.f.n.dots, D.Yusupova

O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik  
kafedrasi dotsenti

**Taqrizchi:**

\_\_\_\_\_ f.f.n.dots,

O.Jo‘raboyev,  
Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi  
katta ilmiy xodimi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik  
kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_f.f.d. prof. N.Jabborov

“\_\_\_” \_\_\_\_\_2018-y

**TOSHKENT-2018**

**Malakaviy ishga berilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrası**

**XULOSASI**

Talaba Rustamova Gulhayo G‘ayratjon qizining dotsent Dilnavoz Yusupova rahbarligi ostida **“Muqimiy she‘riyatida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ko‘rib chiqildi va bu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradi.

Davlat Attestatsiya Komissiyasida ushbu ish himoyaga kiritilishi mumkin.

Asos: “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasining 2018-yil 16 maydagi 18-son bayonnomasi

Kafedra mudiri:

N.Jabborov

16-may 2018-yil

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: “Muqimiy she‘riyatida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi”**

**DAK qarori:**

**511200 - O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 401-guruh talabasi Rustamova Gulhayo G‘ayratjon qizining “Muqimiy she‘riyatida badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi”**

Bitiruv malakaviy ishi «\_\_\_\_\_» ga baholansin.

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 -yil

**DAK raisi:**

**N.Mahmudov**

**DAK kotibi:**

**G.Komilova**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4-6</b>
<b>I bob. Muqimiy she'riyatida badiiy shakl</b>	
1.1. Shoir lirikasida gʻazal janrining tutgan oʻrni.....	7-17
1.2. Musammatlar va kichik she'riy janrlar.....	18-29
<b>II bob. Muqimiy lirikasining mavzuiy tasnifi</b>	
2.1. Ishq mavzui talqinidagi oʻziga xoslik.....	30-39
2.2. Ijtimoiy-siyosiy mavzuning poetik ifodasi.....	40-49
<b>Xulosa.....</b>	<b>50-51</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>52-53</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Badiiy shakl va mazmun uygʻunligi adabiyotning, ayniqsa, she'riyatning muhim shartidir. Chunki "...voqyelikdagi har qanday narsa oʻzining tashqi koʻrinishi (shakli) va shakl orqali anglashiladigan mohiyati (mazmun)ga ega. Zero, shakl va mazmun boʻlish tarzida boʻlish shartli, negaki ular – yaxlit bir narsaning har vaqt birlikda mavjud boʻlganva bir-birini taqozo etadigan ikki tomoni... Badiiy shakl va badiiy mazmunning oʻzaro munosabatida keyingisi yetakchi mavqyega ega, u shaklni hosil qilishda juda faoldir... Masalan, gʻazal janri dastlab mazmun hodisasi boʻlib, "ayolarga xushomad, muhabbat" mazmunidagi she'riy she'riy asar gʻazal deyilgan. Keyinchalik gʻazal oʻz mazmuniga mos eng muvofiq shaklga ega boʻlgach, u shakl hodisasiga – turgʻun she'riy janrga ega boʻlgan"<sup>1</sup>.

Muhammad Aminxoʻja Muqimiy she'riyati ana shunday turgʻun she'riy janrlarga boy. Shoir gʻazal, murabba', muxammas, ruboiy, tuyuq, fard, sayohatnoma, maktubot singari oʻnga yaqin she'riy janrlarda ijod qildi. Ijodkorning gʻazallari va murabba'lari, ayniqsa, oʻz davrida katta shuhrat qozondi. Bu janrlardagi shn'rlari hali siyohi qurimasdanoq mashhur hofizlar tomonidan kuyga solini, ashula qilindi. Xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan bu she'rlar bugungi kungacha milliy qoʻshiqchiligimizning sara namunalari sifatida oʻzbek san'atining rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Muqimiy qaysi bir janrda yozmasin, shoir ijodida milliy uygʻonish davriga xos xususiyatlar oʻz ifodasini topdi. Shoir qaysi bir janrda ijod qilmasin, she'riy shakllar (janrlar) bilan badiiy mazmunning oʻzaro uygʻunligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Shoir ijodidagi lirik janrlarning qimmatini belgilashda mazmun va shaklning oʻzaro uygʻunligi masalasini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bitiruv-malakaviy ishimiz ayni shu muqimiyshunoslikda nisbatan kamroq oʻrganilgan masalaga bagʻishlanganligi bilan ham dolzarbdir.

---

<sup>1</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: "Академнашр", 2013, 56-57-бетлар.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Muqimiy she'rlarining o‘rganilishi va ommalashtirilishida filologiya fanlari doktori, professor G‘ulom Karimovning xizmatlari katta bo‘lgan. Olim 1960-1961 yillarda Muqimiy “Asarlar to‘plami”ning ikki jildligini ilmiy izohlar bilan nashrga tayyorlab chop ettirgan<sup>2</sup>. Shoir asarlari to‘plamining birinchi jildi 1960 yili, ikkinchi jildi 1961 yili nashr qilingan. Muqimiy asarlarining bir jildlik yana bir to‘plami professor G‘ulom Karimov tomonidan 1974 yili nashr etilgan<sup>3</sup>.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlarining oliy o‘quv yurtlari darsliklariga kirishi ham G‘ulom Karimov faoliyati bilan bog‘liq. Adabiyotshunos olimning qayta-qayta nashr etilgan oliy o‘quv yurtlari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida Muqimiy ijodini alohida o‘rganish ko‘zda tutilgan edi<sup>4</sup>. Darslikda Muqimiy she'riyatining janr xususiyatlari, shoir lirikasining mavzular olami, badiiy mahorati kabi masalalarga ham e‘tibor qaratilgan.

Ko‘p yillik ilmiy izlanishlari natijasida G‘.Karimov 1970 yili “Muqimiy hayoti va ijodi” monografiyasini chop ettirdi<sup>5</sup>. Monografiyada Muqimiy yashagan davrning o‘ziga xos xususiyatlari, shoir ijod qilgan adabiy muhit, Furqat va Zavqiy bilan o‘zaro ijodiy hamkorliklari, she'riyati va uning mavzu ko‘lami, lirik asarlarida xalqchillik, hajviy asarlari, ijodkor sayohatnomalarining adabiyotimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni kabi masalalar tadqiq qilindi.

1976 yili Abdurashid Abdug‘afurovning “Muqimiy satirasi”<sup>6</sup> kitobi nashrdan chiqdi. Kitobda shoirning satiralari va yumorlari tahlilga tortildi. Ularning o‘zbek adabiyotida hajviyotni rivojlantirishdagi o‘rni masalasi o‘rganildi.

Sunnatulla Ahmedovning 1986 yili chop etilgan “O‘zbek adabiyotida sayohatnoma”<sup>7</sup> kitobida shoir qalamiga mansub sayohatnomalar tadqiq qilingan. Ijodkor sayohatnomalarida ko‘tarilgan mavzular, ularning badiiyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan.

---

<sup>2</sup> Муқимий Асарлар тўплами. Икки томлик. - Т.: Бадий адабиёт, 1960, 1961.

<sup>3</sup> Муқимий. Асарлар. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974

<sup>4</sup> Каримов Г. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. -Т.: “Ўқитувчи”, 1975, 1987.

<sup>5</sup> Каримов Г. Муқимий ҳаёти ва ижоди. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970

<sup>6</sup> Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. - Т., 1976

<sup>7</sup> Аҳмедов С. Ўзбек адабиётида саёхатнома. Т., 1986

Yuqorida sanalgan tadqiqotlarda Muqimiy ijodi chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, ularda sho'ro mafkurasining ta'siri sezilib turadi. Mustaqillik davrida Muqimiy asarlarini yangicha o'rganish boshlandi. 2004 yili nashr qilingan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti"<sup>8</sup> darsligi buning yorqin isbotidir. Darslik ushbu davrning boshqa ijodkorlari qatorida Muqimiy ijodiga oid qarashlar ham yangilanganligi, shoir asarlarining asl mazmuni haqqoniy o'rganilganligi bilan alohida ajralib turadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyandasi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy she'riyatida badiiy shakl va mazmun uyg'unligi masalasini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadidir.

**Ishning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- ijodkor merosidagi she'riy janrlar mundarijasini aniqlash va o'rganish;
- g'azal janri takomilida Muqimiy lirikasining tutgan o'rnini belgilash;
- shoirning musammat va kichik she'riy janrlar yaratishdagi mahoratining tahlili;
- Muqimiy she'riyatining mavzu ko'lamini aniqlash, mavzuiy tasnifini amalga oshirish;
- shoir lirikasida ishq mavzui talqinidagi o'ziga xoslik sirlarini o'rganish;
- shoir she'riyatining milliy adabiyotimiz tarixida tutgan o'rnini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, har biri ikki faslni o'z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

---

<sup>8</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: "Маънавият", 2004

## I BOB. MUQIMIY LIRIKASIDA BADIY SHAKL

### 1.1. Shoir lirikasida gʻazal janrining tutgan oʻrni

Muqimiy oʻz ijodiy faoliyati davomida mumtoz she'riyatimizning gʻazal, masnaviy, musammat, sayohatnoma, maktubot, ruboiy, tuyuq, fard kabi janrlarida samarali ijod qildi. Shoirning musammatlari asosan murabba' va muxammaslardan iborat. Ushbu she'riy janrlar ichida Muqimiy adabiy merosining salmoqli qismini gʻazal janriga mansub she'rlar tashkil etadi.

Ma'lumki, gʻazal mumtoz she'riyatimizning eng asosiy janrlaridan biridir<sup>9</sup>. Muqimiy ijodida gʻazalning tutgan oʻrni shunday. Ulardan eng koʻp uchraydigani – **oddiy gʻazal**. Oddiy gʻazalning oʻziga xos shakliy belgilari bor. Bular quyidagilardan iborat: 1) matla'dan maqta'gacha bir xil vaznda yozilgan boʻlishi; 2) matla' misralari oʻzaro qofiyalangan va juft misralarning barchasi unga qofiyadosh boʻlishi; 3) belgilangan (3 baytdan 21 baytgacha) hajmda boʻlishi; 4) maqta'da shoir taxallusi qoʻllanishi lozim.

Muqimiy gʻazaliyotining asosiy qismini mana shu xildagi oddiy gʻazallar tashkil qiladi. Biz ishda gʻazalning shoir ijodida uchraydigan shakllarini baholi qudrat tahlil etishga harakat qilamiz. Mana, shunday gʻazallardan biri:

Husn ila mundogʻ chiqib sahroda raftor aylading,  
Vahshilarni bil muqarrar mahvi ruxsor aylading.

Xush takallumlar bilan toʻtini toʻvuslar bilan,  
Gungu lol aylab ajab hayroni guftor aylading.

Muslim ahliga qilib, qoshlarni mehrobi namoz,  
Zulfu kokillarni tarsolarga zunnor aylading.

Jilvalar birlan nazarlarda nigoro oqibat,  
Gar musulmonsan inon, jonoki, xushtor aylading.

---

<sup>9</sup> Қаранг: Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Т.: “Фан”, 1976; Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1979.

Dilrabo, mundog‘ safarlarga ketib bir necha vaqt,  
Yo‘llaring uzra meni sog‘intirib zor aylading.

Nogahon jono, Muqimiy sori qilding nimnigoh,  
Go‘iyo vayronai xayreni me'mor aylading.

Ushbu g‘azalda yorning go‘zallikda tengsiz ekanligi ta'sirchan bo‘yoqlar orqali tasvirlangan. Ya'ni yorning husnu malohati shu darajadaki, u sahroda raftor aylagan chog‘da biyobondagi vahshiylar ham uning ruxsoriga mahliyo bo‘lib qoladi. Shoir buni “mahvi ruxsor aylading” tasviri orqali ifodalaydi. Bu hali hammasi emas. Yor xush takallum ko‘rgizgan chog‘da, ya'ni mayin so‘zlar bilan lutf qilar ekan, to‘tilaru tovuqlar hayronu lol bo‘lib qoladi. Albatta, bunda shoir shakd va mazmun uyg‘unligiga alohida e'tibor qaratadi. Mubolag‘a san'atidan mahorat bilan foydalangani she'rning badiiy jihatdan pishiq bo‘lishini ta'minlaydi.

“Sog‘inib” radifli g‘azal ham oddiy g‘azal turiga mansub. yetti baytli bu g‘azal chuqur mazmuni, tutilmagan tashbehlari, fikrning mantiqiy izchilligi va san'atkorona ifodasi bilan Muqimiy ijodida alohida o‘rin tutadi. G‘azal matla'i quyidagicha:

Mehri ruxsoringga, jono, zordurman sog‘inib,  
Ko‘rgali mushtoq, dil afgordurman sog‘inib.

Ushbu g‘azal oddiy g‘azalga qo‘yiladigan barcha talablarga javob berishi jihatidan qimmatlidir. Ma'shuqa benihoya go‘zal. Uning yuzi bamisoli xurshid – quyoshga mengzaydi. Shoirning “Mehri ruxsoring” deyishi ham bizning fikrimizni tasdiqlaydi. Oshiq dilini sog‘inch hissi o‘rtaydi. U ma'shuqaning ruxsoriga zor, uni ko‘rishga mushtoq, dili afgor. “Afgor” so‘zi “Navoiy asarlari lug‘ati”da shunday izohlanadi: “yaralangan, jarohatlangan, majruh, o‘rtangan”<sup>10</sup>. Shoir bu so‘zni qo‘llash orqali oshiq ruhiyatini juda ta'sirchan ifodalaydi.

Subhi vasling furqating shomi bilan topdi zavol,  
Qon to‘lib ko‘zga shafaq osordurman sog‘inib.

---

<sup>10</sup> Navoiy asarlari lug‘ati (Tuzuvchilar: P. Shamсиеv, S. Иброхимов). Т.: Адабиёт ва санъат, 1972, 635-бет



Muqimiy bu baytda tazod, istiora va tashbeh san'atlaridan mahorat bilan foydalangan. “Subh” va “shom” soʻzlarining ma'nolari orasidagi qarma-qarshilik tazodni hosil qilib, fikrning ta'sirchan boʻlishini ta'minlagan boʻlsa, “subhi vasling” hamda “furqating shomi” soʻz birikmalari istiora san'atiga misol boʻla oladi. Qon toʻlgan koʻzlarning shafaqqa oʻxshatilishi oshiq koʻnglidagi iztirobning naqadar chuqur va katta ekanini koʻrsatadi.

Xastayu, ma'yusu bemor ayrilib gʻam kunjida

Mustahiqqi poʻrsishi bisyordurman sogʻinib.

Oshiq sogʻinchdan shu darajaga yetganki, gʻam kunjida xastayu ma'yusu bemor boʻlgan. “Mustahiqqi poʻrsish”, ya'ni hol soʻralishiga haqli odam bor boʻlsa, u ham sogʻinchda oʻrtangan oshiq. Shoir bu oʻrinda fors-tojik tiliga xos xalqona iborani, ta'sirchan soʻzlarni keltirish bilan shiru shakar usulini qoʻllaydi.

Yodima sozi dutori ruh afzo xonishing

Tushsa har soat batarroq zordurman sogʻinib.

Shoir endi oʻquvchiga obrazli ifoda orqali oʻz ahvolini bayon etishga oʻtadi. Ya'ni ma'shuqa oshiqqa dutor chalib, ashulalar aytib bergan. Uning koʻz oʻngiga oʻsha baxtli onlar keladi. Yorining dutor soziga mos oshiq ruhini jonlantiruvchi xonishlarini eslar ekan, sogʻinch hissi yanada batarroq ortadi.

Xoh bovar qilma, qil, sansiz musulmonsan agar,

Gʻuncha yangligʻ diydasi xunbordurman sogʻinib.

Ijodkor sogʻinchdan oʻrtangan oshiq obrazini shunday tasvirlaydiki, u ma'shuqaga shunday xitob qiladi: “Agar musulmon boʻlsang ishonishing kerak, lekin xoh ishon, xoh ishonma, seni sogʻinganimdan xuddi gʻunchaga oʻxshab, koʻzlarim qonga toʻlgan”. “Gʻuncha yangligʻ diydasi xunbor” soʻzlari tashbeh – oʻxshatish san'atining betakror namunasi sifatida shoir fikrlarining ta'sirchanligini oshirgan,

Keyingi baytda “ashki ol” (qondan qizil tusga kirgan koʻz yoshi) va “rangi zard” (hijron azobidan oshiq yuzining sargʻayib ketishi) haqida soʻz ochiladi. Oshiqning bunday ayanchli ahvolga kelgani sogʻinchini izhor etish uchun

so‘zlashining hojati yo‘qligini, rangu ro‘yining o‘zi uning dardlarini ifodalab turganini ko‘rsatadi.

Ashki olu rangi zardimdin qiyos etsang bo‘lur  
Hojati guftor emas izhordurman sog‘inib.

Hasratingning nazmini yozib Muqimiy safhaga  
Koru borim dam-badam takrordurman sog‘inib.

Muqimiy ma'shuqaning sog‘inchi tufayli yuzaga kelgan sog‘inchni nazmga solganining sababini izohlaydi. Chunki oshiqning koru bori – qiladigan bor ishi yorning nomini safhaga yozib, takrorlashdangina iborat. Shunday qilib takrorlash ham uning qalbidagi sog‘inch olovini ozgina bo‘lsa ham pasaytirishi mumkin. Bu esa shoirning g‘azalda oshiqning ma'shuqaga bo‘lgan sog‘inchi tuyg‘usini badiiy shakl va mazmun uyg‘unligida tasvirlay olganini ko‘rsatadi.

Muqimiy ijodida uchraydigan g‘azal turlaridan yana biri – **muvashshah-g‘azal**. Muvashshahchilik – Muqimiy ijod qilgan davr she'riyati uchun xos va umumiy xususiyat. “Lirikada muvashshah o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning II yarmida ko‘p avj olib ketib, adabiyot ahli o‘rtasida rasm bo‘lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorat bilan o‘lchanadigan bo‘lib qolgan edi»<sup>11</sup>, – deb yozadi Maqsud Shayxzoda.

“Muvashshah” arabcha so‘z bo‘lib, lug‘atda “bog‘lamoq, ziynatlamoq” degan ma'nolarni anglatadi. Adabiy istilohda muvashshah kishi ismining har bir harfi muayyan misralarning ilk harflari bo‘lib kelgan she'riy shaklni bildiradi. Muvashshah – g‘azallarda kishi ismi ikki xil usul bilan hosil bo‘ladi: 1) g‘azal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflari olinadi; 2) g‘azaldagi qofiyadosh misralarning birinchi harflari olinadi. Muvashshahchilikda asosan, birinchi turdagi shakl keng tarqalgan bo‘lib, Muqimiy ijodidagi muvashshahlar ham ayni shu shakl

---

<sup>11</sup> Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. –Б. 91-92.

asosida qurilgan. Jumladan, mana bu gʻazal ana shunday muvashshah-  
gʻazallardandir:

Ey munavvar orazingga mohi tobon oʻxshamas,  
Mardumiga koʻzlaring Mirrixu Choʻlpon oʻxshamas.

Yuzlaring koʻrgach safosin xoki xijlatlar bilan,  
Oyina sayqal berib oʻzigʻa hayron oʻxshamas.

Rost bilsang shulki, jono to boʻlubman oshno,  
Furqatingga doʻzaxu vaslingga ruzvon oʻxshamas.

Koʻzlaringga ohun Chin, sochlaringga mushki Chin,  
Dur tishingga, la'lingga la'li Badaxshon oʻxshamas.

Ulki raftoring koʻrub, tovus bogʻlarda yurub,  
Aylagay taqlid etib, har chand javlon, oʻxshamas.

Shoʻxi beboke boʻlak hojat emas qatlim uchun,  
Isfahoni qoshingga shamshiri burron oʻxshamas.

Xoʻbligʻda koʻp yoron, ammo barobar kelmagay,  
Sanga koʻrdimkim ukang ham boʻlsa chandon oʻxshamas.

Aylamas mehrobi abroʻying koʻrib,ulkim nomoz,  
Hyech mazhabda oʻzin olsa musulmon oʻxshamas.

Nogahon har she'rimi bir-bir agar olsang, Muqim,  
Nazmi vasfing chiqmasa yolgʻonu yolgʻon oʻxshamas.

Ushbu gʻazal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflari qoʻshilishidan  
“Ergashxon” ismi kelib chiqadi. Ma'lumki, mumtoz she'riyatdagi muvashshahlar,

asosan, er kishilar ismiga yozilgan. Lekin bu muvashshah kimning ismiga bogʻlangan boʻlsa undagi mazmun aynan shu nom egasi vasfiga yozilgan deb oʻylash nooʻrin. Bu haqda shoir va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda: “...muvashshah kimning nomiga bogʻlangan boʻlsa, oʻsha gʻazalda taʼriflangan obraz ham aynan mazkur kishining oʻzidir, deb oʻylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu gʻazalning kimga bagʻishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor bus-butun boshqa bir kishi boʻlishi mumkin”, – deb yozgan edi. Masalan, “Sodiqxon” ismiga bogʻlangan muvashshahda yor tasvirida quyidagi mazmun mavjud:

Dilbaro, yozib gisu har tarafga gulshanni

Noz ila xirom aylab, sahnin anbariston qil.

Baytda yorning oʻrilgan sochini yoyishi (“Dilbaro, yozib gisu”) haqida gap boryapti. Demak, lirik qahramon – maʼshuqa.

Muvashshahning odatda erlar ismiga bitilishi haqida soʻz yuritdik. Muqimiyning muvashshah-gʻazallari orasida ayol ismiga bagʻishlanganlari ham uchraydiki, bu shoirning mavjud anʼana negizida yangilik qilishga intilganini koʻrsatadi. Jumladan, ijodkorning

Qoshlaring yosigʻa aylardim tasadduq, jonginam,

Boʻlsang erdi kecha yolgʻiz kelib mehmonginam –

matlaʼi bilan boshlanuvchi gʻazali Qamarxon ismiga muvashshah qilingan. Maʼlumki, Qamarxon – ayollar ismi. Bu esa ushbu gʻazal ayol kishiga bagʻishlanganini koʻrsatadi.

Shayxzoda muvashshahning shoir ilmiy biografiyasini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab, shunday yozadi: “Odatda muvashshah faqat tirik doʻstning nomiga bogʻlanadi. Shuning uchun ismlariga muvashshah bogʻlangan kishilarni aniqlash va shu orqali shoirning yoru doʻstlari, muhiti va doirasi haqida konkret material qoʻlga kiritish shoirning ilmiy biografiyasini yaratish uchun muhimdir”. Eʼtiborli jihati shundaki, Maqsud Shayxzodaning Furqat muvashshahlari xususida aytilgan bu fikrlari Muqimiy muvashshahchiligiga ham toʻla aloqador.

Ma'lumki, Muqimiy she'rlari ko'pincha siyohi qurimasdan turib qo'shiq qilib kuylangani sababli ko'proq xonandalar orqali yoyilgan. Juda ko'p taniqli san'atkorlar o'z hayotlarini Muqimiy ijodi bilan bog'laganlar. Shoir she'rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha (Farzinxon), Ismoil naychi ismlari muvashshah sifatida keltirilgani kuzatiladi. Ularga bag'ishlangan baytlar, she'rlar ham bor. Bular o'sha davrdagi mashhur san'atkorlarning ismlari, laqablari. Muqimiyning ular bilan bunday yaqin aloqasi bejiz emas. Shoir g'azallari, musiqiy, ohangdor edi, xaridori ko'p edi. Bu hol ismlari muvashshah qilingan san'atkorlar va boshqa soha kishilarining Muqimiy va uning ijodiy davrasi uchun yaqin shaxslar bo'lgani haqidagi xulosaga olib keladi va shoir biografiyasi hamda adabiy davrasi haqidagi mavjud tasavurlarni boyitishga xizmat qiladi.

Muqimiy ijodida uchraydigan g'azal turlaridan yana biri – **g'azali musajja'**. Musajja' saj'li, qofiyali degan ma'noni anglatib, mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog'liq badiiy san'at. G'azali musajja' baytlari ichki qofiyali g'azal bo'lib, unda baytlardagi misralar to'rt bo'lakka teng bo'linib, oldingi uch bo'lak mustaqil holda qofiyalanadi, to'rtinchi bo'lak esa she'rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so'z bilan tugallanadi. Muqimiy g'azaliyotida bu shaklda yozilgan ikki g'azal mavjud bo'lib, ularning matla'lari musajja' emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur o'zining "Muxtasar" asarida "musajja' g'azallarning matla'ida saj' kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa yaxshiroq bo'lgusidur", – deydi. Muqimiyning quyidagi g'azali musajja' usulida bitilgan va Bobur aytganidek, matla'da saj' rioya qilinmagan:

*Kulbam aro qo'ydi bu dam, yuz shukr ul barno qadam,*

*Miskinlarim aylab karam, qildi gulistoni eram.*

*Jallod ko'zlar qop-qaro, mujgonlaridur surma-so,*

*Qayrilma qoshlar, guyiyo, hunrez shamshiri dudam.*

*Jono dedikim, sodda ro', ko'pdur go'zallar tundi xo',*

*Suhbatda shirin guftu-go', olifta sandek sho'xi kam.*

*Aydi kulub, ey notavon, hajrimda ranging za'faron,  
Javru jafa qildim yomon, ma'zur tut chekding sitam.*

*Aydimki: qullikka bitib, kelgan zamon tashrif etib,  
Qoldi ko 'ngullardin ketib, har qanchakim ranju alam.*

*Gul-gul yonib, ruxsor ochib, guftoridin durlar sochib,  
Kelmas Muqim emdi qochib, ketti qilib chun vahshi ram.*

Ushbu g'azalda qo'llangan musajja' usuli g'azal ohangdorligini g'oyatda kuchaytirib, unga ayricha joziba va latofat bag'ishlagan. Chuqur mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilgan.

“Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” darsligi mualliflari fikricha: “Muqimiyning juda ko'p g'azallari uning tirikligidayoq qo'shiq qilib kuylangan... Bu she'rlarning mavzui an'anaviy yor haqida. Uning husni, ya'ni qoshi, ko'zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta'rifi bag'ishlangan”<sup>12</sup>

. Muqimiyning ko'proq aynan shu mavzudagi g'azallari qo'shiq qilib kuylangani ma'lum.

Shoirning ana shunday qo'shiqqa aylangan she'rlarining aksariyati musajja' g'azallar bo'lgan. U musajja' g'azallar yozishda katta mahorat egasi bo'lgan. Bu borada u mumtoz she'riy an'analarni munosib davom ettirgan, takomillashtirgan.

Muqimiy g'azallarida badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanadi. Takrir – mazmunni kuchaytirish, ta'kidlash maqsadlariga xizmat qiladigan, badiiy so'zning ta'sir kuchini oshiradigan badiiy san'at turi. Muqimiy devonida boshdan-oxir ushbu san'at asosiga qurilgan g'azallar ham uchraydi. Takrir san'ati, birinchidan, shoir urg'u bermoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'quvchining diqqat-e'tiborini muallif ko'zda tutgan asosiy mazmunga qaratishda alohida ahamiyatga ega. Uchinchidan, bu san'at g'azalda o'ziga xos ohangdorlikni ta'minlaydi:

---

<sup>12</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юрглари филология факультетлари учун дарслик. Т.: “Маънавият”, 2004. 98-бет.

Ey yaxshilar, kelayluk bir joyga yig'ilaylik,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Xush kechgan dam g'animat, ko'p chekma ranji zaxmat,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

G'amdin qurib majolim, yo'q emdi zarra holim,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Xalloq bandaparvar, qo'y qilma vahmi mahshar,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Jo'sh ursa bahri rahmat, jurming tamomi tuhmat,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Gulbog'larda xurram, borib tur emdi biz ham,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Ol pardani yuzingdin, yur o'rgulay ko'zingdin,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Ey sho'x ushlab qo'l, kelsangchi toki bir yo'l,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Aylab g'amingda giryon, tutting demayki, ey jon,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Yig‘lar Muqimiy tokay, topmas murodi naylay,  
O‘ynaylik, kulaylik, omon bo‘laylik.

Ushbu g‘azaldagi takror o‘quvchiga zarracha malol kelmaydi. Aksincha, she‘rning musiqiyligini oshirib, misralar jozibasining o‘quvchi qalbiga oqib kirishini ta‘minlaydi. Bu hol, o‘z navbatida, Muqimiyning nechog‘liq mahoratli shoir bo‘lganini ko‘rsatadi.

Muqimiy g‘azallari ichida “Navbahor” she‘ri alohida o‘rin tutadi. Ma‘lumki, navbahor – yangi bahor ma‘nosini ifodalaydi. U qish faslidan keyin tabiatning uyg‘onishi, borliqning yashil libosga burkanishi pallasidir. Navbahor – majudotning gullab-yashnashi faslidir. Qorlar erib, quyosh nurlaridan isigan yerning tafti ko‘kka o‘rlashi, qushlarning tinimsiz chug‘uri, qaldirg‘ochlarning tikka ko‘tarilishi – shoir tabiatning bu go‘zalligidan cheksiz bahra oladi. Tiriklik insonga Yaratganning naqadar ulug‘ ne‘mati ekanini yorqin his etadi. Uning qalbida hayotsevarlik tuyg‘ksi jo‘sh uradi:

Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar!  
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtog‘lar!

Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila,  
O‘ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog‘lar!...

G‘azalda shoir tabiatning ana shunday go‘zlar lavhalarini bamisoli musavvirday jonli, ta‘sirchan tasvirlar ekan, birdaniga jamiyat tasviriga o‘tadi. Adolatsizlik, haqsizlik, “ahli tamiz xor” ekani haqidagi fikrlar she‘r mazmunida birdaniga burilish yasaydi:

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,  
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.

“Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligida ushbu g‘azal tahlili natijasida shunday xulosa chiqarilgan: “Lekin, afsuski, zamona – yomonniki. Aqlli, dono kishilar (ahli tamiz) oyoq ostida, bulbul o‘rnini qarg‘alar (zog‘lar) olgan. Shoir kutilmaganda gapni mana shu jamiyat hayotiga buradi va unga o‘z



munosabatini bildiradi. Agar zamona adolatli bo'lsa, har kim o'ziga munosib joyda bo'lmog'i lozim edi. Holbuki unday emas. Shoirning e'tirozi shunda"<sup>13</sup>

Bu g'azal Muqimiy lirikasida tabiat tasviri va ijtimoiy mavzu o'zaro uyg'unlikda tasvirlanganini ko'rsatadi. Shoirning zamonasidagi ijtimoiy-siyosiy voqyelikka faol munosabat bildirganidan, badiiy shaklga, ya'ni mumtoz g'azal janriga yangicha mazmun olib kirganidan dalolat beradi.

Umuman, Muqimiy g'azalnavislik borasida salohiyatli ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning g'azallari adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan ijod namunalari.

---

<sup>13</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: “Маънавият”, 2004. 101-бет.

## 2.2. Musammatlar va kichik she'riy janrlar

Mumtoz adabiyotimiz va uning bevosita davomi bo'lgan milliy uyg'onish davri she'riyatida musammat janrining o'rni alohida. Musammat arabcha «tasmit» so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi marvarid donalarini ipga tizmoq, tasmitlamoq demakdir»<sup>14</sup>. Istilohda esa har bandi to'rt misradan o'n misragacha bo'lgan aruz vaznida yozilgan she'r nazarda tutiladi. Agar banddagi misralar soni to'rtta bo'lsa – murabba', beshta bo'lsa – muxammas, oltita bo'lsa – musaddas, yettita bo'lsa – musabba', sakkizta bo'lsa – musamman, to'qqizta bo'lsa – mutassa', o'nta bo'lsa – muashshar deyiladi. Ularning qofiyalanish tizimi g'azalnikiga o'xshaydi. O'xshashligi shundaki, birinchi banddagi misralar o'zaro va keyingi bandlarning oxirgi misralari birinchi bandga qofiyadosh bo'lib keladi.

Musammatlarda ham, g'azaldagi singari, shoir taxallusi so'nggi bandda ishlatiladi. Muqimiy ijodida musammatning murabba' va muxammas shakllarini uchratish mumkin. Muqimiy “Tanlangan asarlar” ikki jildligida murabba'lar 20 dan ortiq bo'lib, muxammaslar 50 dan ortiqdir. Muxammaslardan 20 ga yaqini o'z qalamiga mansub bo'lib, qolgan qismi Abdurahmon Jomiy, Navoiy (5 ta), Fuzuliy (3 ta), Amiriy (5 ta), G'oziy, Nodim, Furqat (6 ta), Alma'iy (2 ta), Zavqiy, Kamiy, Umidiy, Muhayyir, Muntazir, Visoliy singari shoirlar g'azallariga bog'langan taxmislardir.

Murabba' – musammatning to'rtlik shakli. Muqimiy lirikasida murabba' alohida o'rin tutadi. “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” darsligi mualliflarining yozishicha: “...murabba' boshqa janrlardan, avvalo, vazn va qofiyasiga ko'ra farqlanadi. Ruboiy faqat hazaj bahridagina yozilsa, murabba' uchun bunday cheklanish yo'q. Ruboiy, tuyuq mustaqil to'rtliklardir, murabba'da esa bir necha to'rtliklar qo'shilishidan yaxlit asar bo'ladi va ular *a a a a, b b b a, v v v a* shaklida qofiyalanadilar. So'nggi bandda taxallus bo'ladi”.

Bizga Muqimiyning yigirmadan ortiq murabba'si ma'lum bo'lib, ular o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan alohida diqqatga sazovordir. Murabba'larning deyarli hammasi ishqiy mavzuda yozilgan. Lekin bu tanish mavzu

---

<sup>14</sup> Орзибеков Р. Ўзбек классик поэзиясида ғазал ва мусаммат. 71-б.

murabba'larda shu qadar ustalik, shu qadar yuksak mahorat bilan ishlanganki, natijada mo'jizakor san'at asari yuzaga kelgan. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida yozilishicha: "Muqimiyning murabba'lari... deyarli hammasi ishqiy mavzuda. Ohangdor, ravon. Vazniga ko'ra aruzdan barmoqqa yaqin turadi. Xalq qo'shiqlarini eslatadi"<sup>15</sup>

. Mazmunan tugal, shaklan kam-ko'stsiz murabba'larning bir namunasi sifatida Mashhur "Tanovar" kuyiga solib ashula qilingan "Ko'nglim sandadur" murabba'si buning yorqin dalilidir:

Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,  
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,  
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,  
O'zim har joydaman ko'nglum sandadur.

Mehring o'ti nogoh tushdi jonlarga,  
Parvoyim yo'q zarra xonu monlarga,  
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,  
O'zim har joydaman ko'nglum sandadur.

Ertayu kech fikru zikrim xayoling,  
Bir so'rmading: "Nalar kechdi ahvoling?"  
Eslaringa tushib shirin maqoling.  
O'zim har joydaman ko'nglum sandadur.

Voqif ermas kishi sening aslingdin,  
Tokim desam, pari, sening naslingdin,  
Vo darig'o, judo bo'ldim vaslingdin.  
O'zim har joydaman ko'nglum sandadur.

---

<sup>15</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юрглари филология факультетлари учун дарслик. Т.: "Маънавият", 2004. 99-бет.

Yo‘q san kabi malohatlik yagona,  
Ko‘rganmukan misolingni zamona,  
Bo‘lib xalq ichida mundog‘ afsona,  
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,  
Raftoringa shaydo jumla yoronlar,  
Qolib har dam o‘z ishimga hayronlar,  
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

Sultonisan, barcha xo‘blar nadiming,  
Doim erdim duogo‘yi qadiming,  
Bovujudi so‘rmay o‘tting Muqiming,  
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

Dastlab bu murabba'ning mazmuniga diqqat qilaylik. Ko‘rinib turibdiki, unda ishqiy kechinmalar tasvirlanadi. Lekin shoirning ustaligi, mahorati shundaki, kichik hajmdagi she'rda muhabbatning butun bir sarguzashti va tarixi: muhabbatning tug‘ilishi, kechinmalari, alam-hasratlari, shodliklari va nihoyat uning taqdiri ko‘rsatilgan.

Keltirilgan bu bandlar mazmunidan ko‘rinib turibdiki, she'rning aniq muqaddimasi va xotimasi (1- va 7-bandlar) bor, shuningdek, undagi ruhiy holatlar rivojida ichki bog‘lanish, tadrijiy va mantiqiy harakat ham mavjud. Murabba' bandlari o‘zining g‘oyaviyligiga batamom muvofiqdir, bironta ortiqcha band yo‘q. Mahbubani ko‘rib oshiq bo‘lgan va uning visoliga erisholmay, ertayu kech hijron o‘tida yongan oshiq duogo‘y bo‘lib qolish bilan qanoatlanishga majbur. Haqiqiy va samimiy oshiq obrazining ana shu ruhiy kechinmalari murabba'da musiqiy ravonlik bilan ifodalangan.

Muqimiy murabba'larining jozibador chiqishi va shuhrat qozonishining siri ham uning mazmunan va ruhan xalq she'riyatiga yaqinligidadir. Muqimiy murabba'larini xalq she'riyatiga yaqinlashtiradigan eng muhim xususiyati ular

mazmunining aniqligi, uslubining soddaligi va samimiyligidir. Shoir murabba'lariga xos bo'lgan xususiyatlarni: chuqur mazmundorlik, ravonlik, sho'x, o'ynoqi vazn va samimiyligni ko'rsatish uchun "Ey chehrasi tobonim" asarini eslash kifoya.

Shoir ijodida bunday murabba'lar ko'p ekanligini ta'kidlash kerak. Ijodkorning "Ko'nglim sendadur", "Ko'rdim yuzingni", "Yodimga tushdi", "Ajab shior aylading" murabba'lari o'zining kompozitsion tugallanganligi, ifodalaridagi soddaligi va samimiyligi, mazmunining chuqurligi va ravshanligi bilan mumtoz she'riyatimizning eng yaxshi namunalari hisoblanadi.

"O'zbek adabiyoti tarixi" ko'pjildlik tadqiqotining beshinchi jildida shoir murabba'lariga quyidagicha baho beriladi: "Muqimiy murabba'lariga xalq og'zaki badiiy ijodining ta'siri ko'proq seziladi. Ularning ko'pchiligi xalq qo'shiqlari ruhi va vaznida yaratilgan bo'lib, ravon va jo'shqin yangraydi. Ayrim murabba'lar esa o'z tuzilishi va ruhiga ko'ra xalq dostonlaridagi bosh qahramonning o'z ma'shuqasiga qarata aytgan muhabbat va vafo, rashk va shubha haqidagi monologlariga yaqinlashadi"<sup>16</sup>.

Ertayu kech ishim, fikrim xayoling,  
O'zgalarning nomidadur visoling.  
Bir ko'rarga zordurman jamoling,  
Niqob ochmas bodi sabo, na bo'ldi?

yetti ko'kka shomu sahar fig'onim,  
Arz ayladim necha dardu nihonim.  
Hargiz eshitmading, magar gumonim  
Qilmas asar qilgan duo, na bo'ldi?

Muqimiyning murabba'lari xalq o'rtasida nihoyatda mashhur bo'lgan. O'sha davrning mashhur hofizlari, yosh havaskorlar tomonidan kuylarga solinib, saylgohlarda, katta yig'inlarda sevimli ashulalar qatorida ijro etilgan. Ularning

---

<sup>16</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. Бешинчи том. - Т.: "Фан", 1980, 113-бет.

mazmuni va ohangi xalq ruhiyatiga yaqin, badiiyati mukammal. Umuman, shoir bu janrning betakror namunalarini yaratgan.

Shoir muxammaslarining barchasi ishqiy mavzuda. Ma'lumki, muxammasning birinchi bandi **a-a-a-a-a** shaklida, ya'ni barcha misralar o'zaro qofiyalangan bo'lishi kerak. Shoir muxammaslari xuddi shu talab asosida yaratilgan.

Ijodkor muxammaslarining deyarli barchasida **radif**dan o'rinli va mahorat bilan foydalaniladi. "Ayrilib", "ayting", "xush kelding", "keling", "aylanay", "qolmadi", "biri", "kelsangchi", "muncha ham", "nechun", "dog'men", "ofarin", "omon", "kim desun", "ayrilmasun" singari radiflar shoir muxammaslarining ohangdorligini, badiiyatini ta'minlagan. Ta'sir kuchini oshirib, bandlararo mazmuniy bog'lanishni kuchaytirgan. Mana, shoirning "kim desun" radifli muxammasining ta'sirchan va xarakterli bir bandi:

Soyaedurmenki, boqmas oftobim kim desun?  
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim kim desun?  
Bir o'qutmaydur bitib bergan kitobim kim desun?  
Ul tag'oful peshaga holi xarobim kim desun?  
Hajrida mundog' meni ko'rgan azobim kim desun?

Topmadim vaslig'a yo'l, aylab xayolu o'ylar,  
Paykarim g'amdin zaif o'ldi, chunonchi, mo'ylar,  
O'zgalarga xulqi xush, ammo menga badxo'ylar,  
Hamnishindurlar ulug'larga xushomadgo'ylar,  
Yo'lida jononimi xayru savobim kim desun?

Muqimiy muxammaslariga tegishli yana bir jihat **tarje'** bilan bog'liq. «Tarje'» arabchada qaytarish, takrorlash degani. Muxammasda tarje' ikki xil: agar ikki misra takrorlanib kelsa, bayt tarje'i; bir misra takrorlansa, misra tarje'i bo'ladi. Muqimiy muxammaslari orasida misra tarje'ini kuzatish mumkin. Tarje' misra muxammasning birinchi bandiga qofiyadosh bo'lgan beshinchi misra bo'lib, har bandning shu misrasi sifatida takrorlanib keladi. Masalan, Muqimiyning bir

muxammasida “Jafo chekkan, alam tortgan, halovat ko‘rmagan jonim” misrasi tarje' bo‘lib kelgan:

Falakdain rohat izlab kom hosil qilmagan jonim,  
Jahonning ayshidin bir dam ko‘ngul shod etmagan jonim,  
G‘ami ayyomidin bir lahza forig‘ bo‘lmagan jonim,  
Malohat dog‘i tig‘i xalqdin ayrilmagan jonim,  
Jafo chekkan, alam tortgan, halovat ko‘rmagan jonim.

Ushbu tarje' misra she'rda shoirning ifodalamoqchi bo‘lgan fikrini alohida ta'kidlash va bandlararo mazmunan bog‘liqlikni hamda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash uchun xizmat qilgan. Muxammasning quyidagi bandi dastlabki banddagi fikrning ana shunday mantiqiy davomi sifatida ijod etilgan:

Junun dashtida Majnun ibtidosi, intiqosi man,  
Murodi maqsadiga yetmagan bemuddaosi man,  
G‘ariblarning g‘aribi, mubtalolar mubtalosi man,  
Hama yori birodarni asiri xokiposi man,  
Jafo chekkan, alam tortgan, halovat ko‘rmagan jonim.

Olti banddan iborat salmoqli muxammas shoirning badiiy mahorati yuksak ekanidan darak beradi. Shoir badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalanadi. Bu orqali ifodalanayotgan fikrning ta'sirchan bo‘lishiga erishadi. So‘zlar o‘quvchi qalbiga go‘yo oqib kiradi, uning tuyg‘ulariga ta'sir qiladi. Muxammasning shoir taxallusi qo‘llangan oxirgi bandi xuddi shunday xulosa chiqarishga asos bo‘ladi:

Boshimga shu'lai suyi qiyomat oftobidur,  
Yurokim laxta-laxta otashi hijron kabobidur,  
Boshim gul bargi uzra hamdi sahrolarda hisobidar,  
So‘zim har bir alam tortgan Muqimiyning kitobidur,  
Jafo chekkan, alam tortgan, halovat ko‘rmagan jonim.

Yuqorida aytganimizdek, Muqimiy muxammaslarining o‘ttizdan ortig‘i **taxmis**lardir. Muxammas «beshlik» bo‘lsa, taxmis «beshlantirish» demakdir. Unda shoir o‘ziga ma'qul g‘azalning har bayti oldidan uch misradan qo‘shib, uni muxammasga (beshlikka) aylantiradi. Buning sharti shuki, taxmisch shoir

gʻazalning vazni va qofiyasiga toʻla «boʻysunishi» kerak. Ayni paytda, unga ham taxmis soʻngida oʻz taxallusini qoʻllash «huquqi» berilgan. Muqimiy oʻziga ustoz deb bilgan Alisher Navoiy gʻazallariga, ayniqsa, koʻplab taxmislar bogʻlagan. Taxmis bogʻlashda shoir gʻazalning nafaqat vaznu qofiyasiga, balki uning tili va uslubiga ham eʼtibor beradi. Hazrat Navoiyning “oʻlturgʻusi” radifli gʻazaliga yozilgan taxmis shu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

Taʼxir qilmang, mahvasho, koʻp intizor oʻlturgʻusi,  
Yuzdin niqob ochmay keling gardi gʻubor oʻlturgʻusi,  
Bu yoʻlgʻa yurma ey zohid, boʻlsang duchor oʻlturgʻusi,  
Bir kun mani ul qotili Majnun shior oʻlturgʻusi,  
Oʻtru chiqib, javlon qilib devonavor oʻlturgʻusi.

Eʼtibor berilsa, Muqimiy misralarida ham gʻazal satrlaridagi singari navoiyona zavqni, teranlik va ohangni his etish mumkin. Ulugʻ ustoz shoirlar gʻazallariga taxmis bogʻlashning yana bir sharti – gʻazalga bogʻlangan uch misra mohiyatan unga shunchalik singib ketishi kerakki, beshlik band yaxlit oʻqilganda bamisoli bir ijodkor tomonidan bitilgandek taassurot uygʻotishi zarur. Muxammasning keyingi bandlarida ham xuddi shu holni kuzatish mumkin:

Majnundin oʻzgamen kibi bu dasht aro sargashta kim?  
Savdoi zulfigʻa ani mandek koʻngul vobasta kim?  
Tan etma, zohid ishqdin olam aro orasta kim?  
Oshiq boʻlurda bilmadim, men notavoni xasta kim:  
Hajr oʻlsa - gʻam kudurgʻusi, vasl oʻlsa - yor oʻlturgʻusi.

Muqimiyning Navoiy gʻazaliga bogʻlangan ushbu taxmisini bu janrning mukammal namunasi, deyish mumkin. Janr talabiga koʻra, muxammasning oxirgi bandida har ikki shoir taxallusi qoʻllangan. Bir-biriga sanʼatkorona bogʻlangan nazmiy satrlar ustoz-shogird ijodkorlarning sheʼriyatda erishgan yuksak darajasidan dalolat beradi:

Koʻz shabnamidin gʻunchani bulbul ochibdur orazin,  
Yo ul gulu rayhon ila sunbul ochibdur orazin,  
Emdi xalos oʻlmoq, Muqim, mushkil, ochibdur orazin,



Derlar Navoiy qatlig‘a gul-gul ochibdur orazin,  
Yuz ko‘rmayin ul qotili chobuk suvor o‘lturg‘usi.

Muqimiy zamondosh shoirlardan eng ko‘p muxammasni Furqat g‘azallariga bog‘lagan. Ma'lumki, bu ikki shoir o‘rtasida yaqin do‘stona munosabatlar bo‘lgani kuzatiladi. Bu ikki ijodkorning Qo‘qon shoirlari Zavqiy, Nisbatiylar bilan birga mushoaralar o‘tkazgani, ijodda yaqindan hamkorlik qilgani, bir-birlariga yozgan she'riy maktublari ana shu do‘stlikning ijodiy samarasidir. Muqimiy va Furqat bir-birlarining g‘azallariga taxmislar ham bog‘lashgan. Bu taxmislar ushbu janrning betakror namunasi ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Muqimiy Furqatning “Bir qamar siymoni ko‘rdim...” deb boshlanuvchi mashhur g‘azaliga ham taxmis bog‘lagan. Ushbu taxmis nafaqat ikki shoir hamkorligining, balki milliy uyg‘onish davri o‘zbek she'riyatining o‘ziga xos yutug‘i sifatida baholanishga loyiqdir:

Dilbarekim olam istig‘nosidin tashvirda,  
Yo‘q qoshi oldida burrolig‘ dami shamshirda,  
Lol etar shirin takallum to‘tini taqirida,  
Bir qamar siymoni baldai Kashmirda,  
Ko‘zlari masxuru yue jodu erur tasxirda.

E'tibor berilsa, Furqat g‘azaliga Muqimiy bog‘lagan uch satr mazmun jihatidan ham, badiiy shakl nuqtai nazaridan ham bog‘lanib ketgan. Ularni o‘qiganda hatto ikki shoir yozganligi sezilmaydi. Go‘yo bir ijodkor qalamidan chiqqandek taassurot qoldiradi.

So‘rma parvozim, paru bolimni, bo‘lmishman asir,  
Orzu birlan havaslardin qutulmishman asir,  
Goh yig‘lab, goh ahvolimg‘a kulmishman asir,  
Aydim: “Ey jon ofati, zulfingga bo‘lmishman asir”,  
Dedi: “Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjirda”.

Paru bol, parvoz, asirlik kabi tushunchalar Furqat she'riyatida alohida o‘rin tutadi. “Adashganman” radifli she'rida shoir “Paru bolim to‘kuldi, maskanim oxir qafas bo‘ldi” deb yozgan edi. Bu tushunchalarni teran tushungan Muqimiy

taxmisda aynan Furqat ruhiyatiga mos soʻzlarni qoʻllashga harakat qiladi. Natijada ikki shoir satrlari bir-birining izchil davomi sifatida namoyon boʻladi. Muxammasning quyidagi bandi ham bu fikrni tasdiqlaydi:

“Qomating bogʻ ichra yaktodur”, dedim, aydi kulub,  
“Oshiqa vasling tamannodur”, dedim, aydi kulub,  
“Xatlaringdin diyda biynodur”, dedim, aydi kulub,  
“Nuqta lab ustida bejodur”, dedim, aydi kulub:  
“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”.

Ma'lumki, Furqat gʻazalida ushbu bayt oshiq va ma'shuqa oʻrtasidagi dialog shaklida berilgan. Muqimiy ham ana shu dialog usulini saqlab qoladi. Bu esa, oʻz navbatida, taxmisning mazmunan izchil, mantiqan teran, badiiy jihatdan mukammal boʻlishini ta'minlagan.

Maqdamidin zebu oroyish topib sahni chaman,  
Yoʻligʻa gullar nisor aylab, Muqimiy zar tuman,  
Sochibon nogoh tabassum birla loʻluyi Adan,  
Aydi: “Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?”  
Man dedim: “Gʻurbatda Furqat bor ekan taqdirda”.

Yuqorida tahlil qilingan taxmis ikkala shoir ijodidagi yaqinlikdan darak beradi. Demak, Muqimiy va Furqat ijodda bir-biridan ta'sirlangan. Ular she'riyatidagi oʻzaro yaqinlik, fikrni badiiy ifodalash usullaridagi mushtarak jihatlar ana shunday xulosa chiqarishga sabab boʻladi.

Umuman, musammatlar tahlili Muqimiyning bu janrda mahorat bilan qalam tebratganini, mumtoz she'riyatimizdagi mavjud an'analarga yangilik kiritishga, nazmiy tafakkurni rivojlantirishga harakat qilganini koʻrsatadi.

Muqimiy ijodida kichik she'riy janrlardan bizgacha 1 ta ruboiy, 1 ta tuyuq, 9 ta fard yetib kelgan, xolos. Shoir “Tanlangan asarlar”ining ikki jildligidan oʻrin olgan ushbu she'rlar Muqimiyning kichik she'riy janrlar ijod qilishda ham yuksak mahorat egasi boʻlganini koʻrsatadi.

Ma'lumki, ruboiylar iiki turga boʻlinadi: 1. Ruboiyi xosa. 2. Taronai ruboiy. Ruboiyi xosaning qofiyalanishi: **a - a - a - b** tarzida boʻlsa, ruboiyi taronaning

qofiyalanishi **a - a - a - a** shaklida keladi. Muqimiyning bizga ma'lum yagona ruboiysi birinchi, ya'ni ruboiyi xosa turiga mansub:

Ajib kordchai asli korgohi farang,  
Kesarda tig'i barobar damina mo'm ila sang.  
Qachonki tegdi bu "zab'yol" tamg'ai oliy,  
Qutuldum eski fichog'din yamon bosib edi zang.

Ushbu ruboiyda "farang – sang – zang" so'zlari o'zaro qofiyalanib kelgan va satrlarning o'ziga xos ohangdorligini ta'minlagan. Muqimiy ijodidagi mazkur ruboiyning yana bir o'ziga xosligi uning shoir biografiyasiga aloqador ekanligida ko'rinadi. Ya'ni shoir ustasi farang hunarmandga pichoq yasatgani, bu pichoq hatto mum bilan toshni ham kesa olishi, natijada eski pichoqdan qutulgani voqyeasini hazil ohangida ruboiyga solgan. Bu hol Muqimiyning hayotdagi kichik bir lavhalardan ham katta umumlashma xulosalar chiqara olgani va uni she'rda betakror ifodalay bilganini ko'rsatadi.

Ruboiy garchi to'rt misradan tarkib topib, shaklan kichik bo'lishiga qaramay, o'zida katta mazmuni mujassam etishi zarur. Bundan tashqari, fikr badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalanishi kerak. Muqimiy ruboiysi ana shu talablarga to'liq javob bera oladi.

Muqimiy qalamiga mansub yagona tuyuq esa ishq mavzuida yozilgan. "Kechaman" omonimi orqali chuqur mavzu go'zal badiiy shaklda ifodalangani shoirning mahoratini ko'rsatadi:

Bodasiz betobman bu kecha man,  
La'ling istab emdi jondin kechaman,  
Sohili maqsadga yetkaymanmu deb,  
Ko'z yoshim daryosida suv kechaman.

Shoirning fardlari ham badiiy shakl va mazmun teran bog'langani bilan alohida ajralib turadi. Shoirning mavjud 9 ta fardidan 2 tasi fors-tojik tilida yozilgan. Bu ikki fard Muqimiy ijodidagi zullisonaynlikning o'ziga xos namunasidir.

Ma'lumki, fard ikki satr, ya'ni yagona baytdan tarkib topadi. Ana shu ikki misra she'rdagi katta mazmuni ifodalash shoirdan chinakam mahoratni talab qiladi. Muqimiy fardlari bu talabga to'liq javob beradi:

Hasratim el ichra aytsam nogah ifsho roz o'lur,  
Aksari payvasta abro'larni mehri oz o'lur.

Mumtoz she'riyatimizda yorning mehrsizligi, vafodan ko'ra ko'proq jafoga moyilligi ko'p ta'riflangan. Ushbu fardda shoir "payvasta abro'larni mehri oz" bo'lishi haqida yozar ekan, ana shu an'anani davom ettiradi.

Chu bad aslga xo'blar ne kerak,  
Qora tunda xushlab uchar shappararak.

Muqimiy fard janridagi she'rlarida ham ijtimoiy-falsafiy fikrlarni badiiy talqin etgani kuzatiladi. Shoir ushbu fardda "badasl" va "xo'blar" o'rtasidagi zidlikka e'tibor qaratar ekan, buni shappararakning yorug'likni emas, qora tunni xushlashiga qiyoslaydi. Xalqona maqolga tayangan bu fikr irsoli masal san'atining go'zal namunasi bo'lishi barobarida chuqur hayotiy mazmunning betakror badiiy ifodasi hamdir.

Husnig'a ne nuqs, gar bo'lsa ko'zi feruza rang,  
Bilki, bog'larga tarovat sabzadin paydo, bo'lur.

Biror fikrni unga bevosita bog'liq bo'lmagan voqeya yoki tasvir orqali talqin etish mumtoz she'riyatimizda husni ta'lil san'ati sifatida ta'riflangan. Ma'lumki, bu san'atni "chiroyli dalillash" san'ati sifatida e'tirof etiladi. Shoir yuqoridagi fardda ma'shuqaning ko'zi feruzarang ekanligi uning husniga zinhor nuqson yetkazmasligi, negaki, bog'lardagi tarovat aynan sabzaranglikdan, degan chiroyli fikrni keltiradi.

Sahfaekim anga sharhi hajringiz yozilur  
Ko'zum yoshi-la o'char, harna yozingiz, yozilur.

Shoir yor hajrining sharhi yozilgan sahifalar, har ne deb yozgan bo'lsa ham oshiqning ko'z yoshi bilan o'chadi, degan bevosita hayotning o'zidan olingan fikrni she'rga aylantiradi. Bu hol Muqimiyning hayotni chuqur o'rgangan donishmand shoir bo'lganini ko'rsatadi.

Quyidagi fard ham hayotiy voqeyelikning o'ziga xos va betakror badiiy ifodasi ekanligi bilan alohida ajralib turadi:

Dog'i judolig'im kam emas erdi, ey falak,

Ustig'a boz muntaziri xat ham aylading!

Umuman, Muqimiyning ruboiy, tuyuq va fard janrlariga oid she'rlari ijodkorning kichik nazmiy janrlarda ham mahorat bilan asarlar yarata olganini ko'rsatadi. Bu borada u buyuk shoiru adiblar an'anasini munosib davom ettirish barobarida, ularni rivojlantirdi. Ohorli mazmuni go'zal badiiy shaklda ifodalashga intildi. Qo'qon adabiy muhitining betakror an'analarini munosib davom ettirdi, rivojlantirdi.

## II BOB. MUQIMIY SHE'RIYATINING MAVZUIY TASNIFI

### 2.1. Ishq mavzui talqinidagi o'ziga xoslik

Muqimiy lirikasining asosini muhabbat mavzusi tashkil etadi. Bu mavzu faqat mumtoz adabiyotimizda yoxud Sharq poeziyasidagina emas, balki jahon adabiyotida ham juda ko'p ishlangan va unda qanchadan-qancha shoh asarlar yaratilgan. Bu mavzu hazrat Alisher Navoiyga XV asrda qanday bitmas-tuganmas ma'no baxsh etgan bo'lsa, oradan qariyb besh asr o'tgandan keyin ham Muqimiyga shunday ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki adabiyotning asosiy manbai insondir. Insonni muhabbatsiz tasavvur qilish mumkin emas, muhabbat inson ma'naviy hayotining ajralmas qismidir.

Nafaqat Muqimiy ijodidagi, umuman, mumtoz adabiyotimizdagi ishq talqini masalasi alohida o'rganishni taqozo etadi. Ishq, Hazrat Navoiy fikricha, uch turli bo'ladi:

1. "Avom ishqidurkim, avomu-n-nos orasida bu mashhur va shoe'durkim, derlar: "Falon falong'a oshiq bo'lubtur". Va bu nav' kishi har nav' kishig'a bo'lsa bo'lur, shag'ab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi shar'iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh"<sup>17</sup>. Ya'ni birinchi tur ishq avom ishq bo'lib, ikki jins orasidagi muhabbatga asoslanadi. Eng yuqori darajasi shar'iy nikoh bo'lgan bu ishq barchaga birday sunnat va mubohdir.

2. "Xavos ishqidurkim, xavos ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahubbi haqiqiy jamolidin bahra olmoq". Hazrat Navoiy ta'biricha, bu ishq sohiblari pok ko'zni pok niyat bilan pok yuzga soladi va pok ko'ngil u pok yuz shavqi-zavqi bilan beqaror bo'ladi. Pok oshiq bu pok yuz vositasida haqiqiy mahub jamolidan bahra oladi.

3. Siddiqlar ishqidurkim, alar Haqning tajalliyoti jamolig'a mazohir vositasidin ayru vola va marg'ubdurlar. Va ul mushohada bexudlig'ida alardin

---

<sup>17</sup> Аlisher Navoiy. Махбубу-л-кулуб. – Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. Т.: "Фан" нашриёти, 1998, 67-бет

shuur, alardin maslub. Shuhudlari istig‘roqqa yetgan va ul istig‘roqdin istixloq maqomin hosil etgan. Agar havodis yeli sipehr gulshani avroqin uchursa, alarg‘a andin xabar yo‘q va anjum gulbarglarin har sori sovursa alarg‘a andin asar yo‘q. Xavoslari nokor tajalliyot jamoli sadamotidin va shavqlari nomiqdor ishq hujumi g‘alabotidin”.

Ya'ni ishqning bu turi siddiqlar ishqni bo‘lib, ular Haq taolo jamolini hyech bir vositasiz ochiq ko‘rish umidi bilan yashaydi. Ularning Haqni mushohada qilish umidlari hatto o‘zni unutish darajasiga yetadi. Agar hodisalar bo‘roni osmon gulshanining bir qavatini uchirib ketsa – ular bexabar va agar yulduzlar gul bargini har tomonga sovursa, bularga asar qilmaydi.

Alisher Navoiy ikkinchi tur ishqni bayon qilganda Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug‘lar nomlarini sanab, ularni “ishq ahlining pokbozlari va shavqu niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari” deb ataydi. Abdurahmon Jomiy nomini tilga olib, “Yana ul hazrat jomi muhabbatidin durdkashlar va irshodi sulukidin foniyvashlarkim, dardu ishq tavrı adosida guftorlari turk ulusida haroratomez va sort xaylida ofatangizdur”, deya o‘zini ham shu safga qo‘shadi.

Bizningcha, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ham ana shu ulug‘lar yo‘lidan yurgan ishq soliklaridandir. Qolaversa, muhabbat mavzuining badiiy talqini har qanday shoir ijodining asosini tashkil etadi. Darhaqiqat, Muqimiy lirik shoir sifatida pok insoniy tuyg‘u – ishq-muhabbatni zo‘r ehtiros va zavq-shavq bilan kuylaydi. Ishqni o‘ziga xos uslubda madh etadi va qalb kechinmalarini she'rga soladi. O‘z she'rlarida insoniy muhabbatni maromiga yetkazib vasf etadi. Zamon va makon bilmaydigan muqaddas tuyg‘u – muhabbat ta'rifi uchun takrorlanmas ifoda usullari-yu ohorli badiiy tasvirlar kashf qiladi, tasvirlamoqchi bo‘lgan kechinmalariga mos qofiya va radiflar izlaydi. Shu o‘rinda bu kabi izlanishlarning eng ahamiyatlilari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish zarurati seziladi.

Ishq mavzusi umumsharq she'riyati, jumladan, o‘zbek adabiyotining bosh mavzularidin biridir. Adabiyot tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, har bir ijodkor bu ko‘hna mavzuni yangi-yangi tashbehtar bilan boyitib kelganini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos Rahim Vohidov fikricha, “Ishqni kuylamagan shoirni va ishq dardi aralashmagan she'rni topish mutlaqo mumkin emas”<sup>18</sup>.

Muqimiy adabiy merosining ham salmoqli qismini ishqiy lirika tashkil etgan bo‘lib, deyarli barcha janrdagi she'rlarida ayni janr imkoniyatiga qarab ishqni tarannum etgan. Shoirning bu mavzudagi she'rlarida visol orzusi, hijron iztiroblari, jon va jonon mojarosiga ko‘p bora murojaat qilingan. Shoir bu mavzuda she'r yozishni ijodining ilk bosqichida boshlagan.

Muqimiy lirikasining asosiy mavzui ishq-muhabbatdir. Shoir ushbu mavzuda o‘ziga xos jozibali she'rlar bitdi. Ta'kidlash kerakki, an'anaviy ishqiy she'riyatda bo‘lgani kabi Muqimiy she'riyatida ham asosiy obrazlar oshiq, ma'shuqa va raqibdir. Shoir o‘zining ishqiy lirikasida o‘z his-tuyg‘ularini, ishqqa munosabatini oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalaydi. Shoir lirikasida ma'shuqa tengsiz go‘zal sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun unga nisbatan “yor”, “mahliqo”, “mahvash”, “hur”, “pari”, “parivash”, “nozanim”, “gul”, “jonon” kabi ko‘plab an'anaviy sifatlar qo‘llanadi. Oshiqning nochor holi, doimo visoldan umidvorligi shoir qo‘llagan “parvona”, “gado”, “devona”, “bulbul” obrazlari vositasida yorqin aks etadi. Ishqdan maqsad – visol. Oshiq uchun mahbubasidan go‘zalroq xilqat yo‘q olamda. Boshqa hych narsa uni qiziqitmaydi:

Necha muddat o‘ldikim, hajr ila Muqim bemor,

Ey nafas masihoso dardlarga darmon qil.

Raqib – ishqiy lirikada oshiq va ma'shuqa bilan yonma-yon yuruvchi obraz. “G‘ayr”, “ag‘yor”, “begona” kabi sifatlar bilan tasvirlanuvchi bu obraz shoir she'rlarida yetakchi o‘rin tutadi. Muqimiy lirikasida bu “uchinchi odam” ko‘pincha oshiq g‘amu anduhining asosiy sababchisi. Ma'shuqaning e'tibori ko‘proq unda. Bu esa, tabiiyki, oshiqning bag‘rini o‘rtaydi:

To‘tiyi shirinsuxan ag‘yorlarning bazmida,

Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.

Ma'shuqaning ko‘proq rag‘bati ag‘yorga ekanligi oshiqning yurak-bag‘rigaiztirob soladi. Lekin oshiq o‘z sevgilisining barcha jabru sitamlariga sabrli.

---

<sup>18</sup> Вохидов Р. Алишер Навоий ва илохидёт. – Бухоро нашриёти, 1996. –Б. 142.



Shoir yordan ming salom etgan kishiga bir salom qilishini, izzatini tutganga ehtirom ko'rsatishini o'tinadi.:

Ming salom etgan kishiga bir salom etsang netar,

Izzating tutganni sen ham ehtirom etsang netar.

Muhabbat haqida she'r yozish hayotni kuylash demakdir. Shu ma'noda, Muqimiy lirikasi chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan hayotiy lirikadir. Hayotiylik shoir lirikasining asosiy va yetakchi xususiyatini tashkil qiladi. Professor G'ulom Karimovning yozishicha: "Muqimiy o'z lirikasida keng ma'nodagi muhabbatni, muhabbat alangasida kuygan insonni kuyladi. Bu inson istaklari, armonlari, kurashlari, kechinmalari, sevinch va alamlari shoir she'rlarini tub mohiyatini tashkil etdi. Ma'lum ma'noda Muqimiy lirikasini "inson psixologiyasining qomusi" deb atash mumkin. Hazrat Alisher Navoiy o'z lirikasini qanday asoslar bilan "Xazoyinul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") deb atagan bo'lsa, xuddi shu asoslar bilan Muqimiy lirikasini ham "inson kechinmalarining xazinasini" deyish mumkin"<sup>19</sup>

Ana shu insoniy kechinmalar ichida eng mo'tabari bo'lgan ishq mavzui shoir she'rlarida zo'r mahorat bilan kuylanadi. Muqimiy o'z lirikasining "muhabbat qo'shig'i" ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi:

O'zimda, garchikim, had yo'q edi, alhamdulillahkim,

Muborak qo'yning'a jo topdi ash'orim mani oni.

Muqimiy so'zidan bo'yi muhabbat kelgay, ey ahhob,

Tarannum qilsa mahfillarida hofizlarni xushxoni.

Bu ijodiy -estetik tamoyilni shoir boshqa bir o'rinda shunday ifoda qiladi:

---

<sup>19</sup> Каримов Ф. Муқимий ҳаёти ва ижоди. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970, 143-бет.

Qilma she'ringa tamasxur, tarki odatdur mahol,  
Xo'bro'larg'a, Muqimiy, man g'azalxon, oxunim.

Chindan ham, hayot, inson, muhabbat haqida kuylash Muqimiy ijodining tark etib bo'lmaydigan "odati"ga aylangan bo'lib, uning mohiyatini tashkil qilar edi.

Muqimiy muhabbat mavzusida ko'p dilrabo she'rlar yozdi. Ularda insoniy kechinmaning turli holatlari tasvirlanadi. Shoir ba'zan shunday zo'r ijodiy mahorat ko'rsatadiki, so'z san'atining namunasi bo'lgan bu she'rlarni o'qiganda, kishining ko'z o'ngida jonli manzara, sehrlil rassom qalami bilan chizilgan ajoyib lavha namoyon bo'ladi. Ijodkor xayolida yaratilgan lavha jonli va qonli hayot manzarasiga aylanib ketadi. Chunonchi, "Yolg'uz" radifli g'azali shunday san'at mo'jizalaridan biri bo'lib, u rassom uchun ham, haykaltarosh uchun ham tayyor manbadir:

Banogah uchradi ot o'ynatib bir dilrabo yolg'uz,  
Rikobig'a surub ko'z, qo'l ochib qildim duo yolg'uz.

Dedimkim: "Nozaninlar xaylida insof qilganda,  
O'zungdur xush takallum, to'tii shirin ado yolg'uz".

Tabassum birla pinhoni dedi: "Oshiqclarim ichra,  
Vale sen ham asiru mumtalolig'ida judo yolg'uz".

Dedim: "Jono chekardim dardi hijroningni muddatlar,  
Harimi vaslinga mahramlig' erdi muddao yolg'uz".

Dedi: “Xilvatda tanho ko‘rmog‘ingdin ne g‘araz bordur?”

Dedimkim: “Orzu shuldurki, jon qilsam fido yolg‘uz”.

Muqimiyni panohi ismatingda asrag‘il, yo Rab,

Xatarlik dasht aro gumgashtai berahnomo yolg‘uz.

Bu she'rda tasvirlangan manzara o‘zining aniqligi va jonliligi bilan kishini maftun etadi: ot o‘ynatib kelayotgan go‘zal – mahbuba, ot uzangisiga ko‘zini surib, go‘zal haqiga duo qiluvchi oshiq. Bu manzarada Sharq adabiyotiga xos xayoliy tasvir va insoniy his-tuyg‘u bor.

Muqimiy g‘azallari muhabbat iztirobida entikkan bir oshiq kechinmalarining jonli va haqqoniy ifodasidir. Unda, xuddi hayotning o‘zida bo‘lganidek, nozik va chuqur tuyg‘ular, qarama-qarshi kayfiyatlar aks etadi. Bu g‘azalda muhabbat alangasida o‘rtangan yurakka xos qayg‘u-alam bilan birga muhabbat og‘ushining lazzati ham bor, ayriliq – hijron jafolaridan faryod qilish bilan birga, yor – visol umidining sevinchlari ham yangrab turadi. She'rni real va hayotiy qilgan, uni jozibador san'at kuchiga aylantirgan narsa ham ana shu insoniy kechinmalarni, qarama-qarshi ruhiy holatlarni, inson tabiati va ruhiyatidagi dialektikani bera bilish mohiyatidir. Bunday she'r hyech qachon eskirmaydi, har safar o‘qiganda yangi zavq-shavq baxsh etaveradi.

Muqimiyning she'riy asarlari, xususan, ishq mavzuidagi nazm namunalari badiiy yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Bu mavzudagi asarlar mazmun mohiyati haqida fikr yuritganda, birinchi navbatda, ularning xalq she'riyatiga yaqinligini ta'kidlash zarur. Shoir o‘z ijodiy faoliyatida xalq adabiyoti xazinasidan ko‘p bahramand bo‘ldi. Professor G‘ulom Karimov fikricha: “Muqimiy va xalq og‘zaki ijodi bahsi ancha diqqatga sazovor temalardan biri bo‘lib, shoir ijodida, xususan uning lirikasida bu masalaga oid tavsifiy misollar ko‘p uchraydi”<sup>20</sup>.

---

<sup>20</sup> Каримов Ф. Муқимий ҳаёти ва ижоди. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970, 143-бет.

Ma'lum bo'ladiki, Muqimiyning lirik she'rlari bilan xalq qo'shiqlari o'rtasida o'zaro yaqinlik kuchli. Bu hol shoirning xalq og'zaki ijodini puxta bilganligidan, undan zavq va ilhom olganligidan darak beradi. Shuning uchun Muqimiy lirikasining eng yaxshi namunalari qo'shiqqa aylanib ketgan va keng xalq o'rtasida kuyga solib, ijro etiladi. Bundan tashqari, shunday hollar uchraydiki, xalq qo'shiqlari ichida Muqimiy she'rlari uslubida to'qilgan matnlar ham bor. Masalan:

Zulm etib mazlumlarni xor qilmoq shunchalar,  
Cho'ridek zo'rlab sotib ozor qilmoq shunchalar.

Sevdigim unda bo'libon yotsa menga intizor,  
Sevmagan bir cholga zo'rlab yor qilmoq shunchalar.

Bu qo'shiq Muqimiyning xalq ijodiga, xalq muzikasiga yaqinligi ham uning san'at ahli – xalq ashulachilari, muzikachilari va bastakorlari bilan yaqin aloqada bo'lishi tufayli edi. Bu hol ayniqsa, g'azallar va murabba'larda ochiq ko'rinib turadi. Muqimiy she'r yozganda uning jarangdorligini, musiqiylikini ta'min etadigan vazn, qofiya, radif masalalariga katta e'tibor beradi. U aruz vaznining deyarli barcha bahrlaridan to'la xabardor bo'lgan.

Muqimiy she'riyatida qofiya va radifning roli ayniqsa katta. Shubhasiz, qofiyada ham, radifda ham ma'lum fikriy fazifa bo'ladi, busiz qofiya ham radif ham yo'q. Lekin qofiyaning ham, radifning ham birinchi vazifasi asarning musiqiylikini ta'min etish, uning ta'sirchan kuchini oshirish uchun xizmat qilishdir. Shuning uchun ham Muqimiy she'riyatida qofiyasi buzuq yoki soxta qofiyali she'r topilmaydi.

Ma'lumki, har bir she'riy shaklning o'z qofiya tuzilishi bo'ladi. G'azal o'ziga xos qofiya tizimi bilan (a-a, b-a, v-a kabi) boshqa she'riy shakllardan farq qiladi. Muxammas she'riy shakl sifatida g'azalning takomilga erishgan turi bo'lib, ularning qofiya tuzilishida ma'lum o'xshashlik bor (a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a kabi). Murabba'larning ham o'z qofiya tuzilishi bor. Muqimiy murabba'larida ikki xil qofiya tuzilishi uchraydi. Ulardan birining tuzilishi a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a tarzida, ikkinchisi b-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-a tarzida ko'rsatilishi mumkin. Lekin

she'riy shakllardagi bu qofiya tuzilishidan tashqari, ularning musiqiylikini oshirish uchun xizmat qiladigan yana qo'shimcha belgilari ham bor. Masalan, she'r san'atidagi qo'sh qofiya yoki misralarning ichki qofiyalanishi ko'proq g'azalga xos. Muqimiyning "Arzimni aytay" g'azali shunday qo'sh qofiyali asardir. Muqimiy she'riyatida bunday asarlarga misollar juda ko'p.

Muqimiyning ishqiy she'rlari asosan an'anaviy yo'nalishda, badiiy tasvir vositalari ham oshiqning hijron kechinmalarini, ma'shuqaning go'zal husnu jamolini, nozu karashmalarini tasvirlashga qaratiladi. Shoir tasvirida ma'shuqa nihoyatda iltifotli, rahmdil, uning har so'zi Masih kabi o'lik jismiga jon ato etadi, uning jamolidan oshiqning shomi subhga, ag'yorning subhi shomga aylanadi. Oshiq – shoir dilbarining bunday iltifotidan shu darajada mamnunki, unga Oллоhdan oliy maqomu shodlik tilaydi. Chunonchi, uning "Kulbam aro" g'azalini olaylik:

Kulbam aro qo'ydi bu dam, yuz shukr, ul barno qadam,  
Maskanlarim aylab karam, qildi gulistoni Eram.

Jallod ko'zlari qop-qaro, mujgonlaridur surmaso,  
Qayrilma qoshlar go'yi yo, xunrez shamshiri dudam.

Jono, dedimki, soddaro', ko'pdur go'zallar tundxo',  
Suhbatda shirin guftago', olifta sandek sho'xi kam.

Aydi kulub: "Ey notavon, xajrimda ranging zafaron,  
Javru jafu qildim yomon, ma'zur tut, chekting sitam".

Aydimki, "Qullikka bitib, kelgan zamon tashrif etib,  
Qoldi ko'ngullardan ketib, har qanchakim ranju alam".

Gulgul-yonib ruxsor ochib, guftoridindurlar sochib,  
Kelmas muqim emdi qochib, ketti qilib chun vahshi ram.

Ishqiy mavzudagi bu she'rning mazmunini kuchaytirishda va tuyg'u ta'sirini oshirishda radifning roli katta. Radif misralar oxirida takrorlanib turuvchi so'z bo'lib, u bir yoki bir necha so'zdan tashkil topishi mumkin. Muqimiy radifni keng qo'llagan. U she'r turlarining hammasida ham radifdan foydalangan, jumladan, uning ishqiy mavzudagi g'azal va murabba'larida ham radifning chiroyli namunalari uchraydi. Lekin, bundan tashqari, murabba'da uning mazmunini, hissiyot kuchini oshirish maqsadida takrorlanib turadigan misralar ham bo'ladiki, ular murabba'ga xos badiiy tasvir vositalaridan biridir.

Shunday qilib, Muqimiy o'z she'larining badiiy shakli ustida zo'r muhabbat va matonat bilan ishlagan, badiiy mahoratning vazn, qofiya, radif kabi elementlarini mukammal egallab, uning mumtoz namunalarini yaratgan.

Muqimiy ishqiy lirikasining tili, uslubi, badiiy vositalari haqida fikr yuritganda shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Muqimiy o'z ijodida ilg'or g'oyalarni targ'ib qilib, haqqoniy xalqchil she'riyat yaratgan ekan, shu yangi ruh va hoyaga muvofiq keladigan yangi uslub, yangi shakl yaratishga ham kirishadi. Natijada Muqimiy lirikasining tili xalqqa yaqinlashadi. Uslubi aniq va sodda, tasvir vositalari esa hayotiy va aniq bo'la boradi. Muqimiy she'riyatida an'anaviy obrazlarning ko'pgina elementlari uchraydi. Lekin Muqimiy ishqiy lirikasi uchun xarakterli xususiyat undagi hayotiylikdir.

Muqimiy she'riyati xalq ichida yashab, xalq zavqiga, talabiga javob berib kelmoqda, bundan keyin ham u xalqning estetik didini tarbiyalashda o'z qimmatini yo'qotmaydi. Muqimiy she'riyatining bu xilda xalqqa manzur bo'lishi va uzoq umr ko'rishining sababi shundaki, unda ishq mavzusi chuqur mazmun va go'zal badiiy shaklda ifodalangan.

Shoir lirikasida ishq mavzui baland pardalarda kuylanadi. Muqimiy go'zal she'riy san'atlar, ohorli timsolu tashbehlar, tazodu istioralar vositasida bu ko'hna mavzuda o'z so'zini aytishga muvaffaq bo'ladi. "Muhabbat eski dard, lekin har bir ko'ngil uni yangilaydi" deyilgani kabi she'riyatda ishq mavzuini qalamga olmagan shoir qolmagan. Lekin har bir ijodkor uning yangi qirrasini kashf etadi, boshqacha aytganda, an'ana zamirida yangilik yaratadi.

Umuman, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy she‘riyatida yetakchi o‘rinda turuvchi ishq mavzusi shoir tomonidan yuksak badiiy mahorat bilan vasf etilgan. Shoir an‘anaviy oshiq, ma‘shuqa va raqib obrazlarini o‘ziga xos tasvirlashga harakat qiladi, ular vositasida katta ahamiyatga ega fikrlarni ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. An‘anaviy hisoblangan ishq mavzusi talqiniga yangicha ruh berishga erishadi.

## 2.2. Ijtimoiy-siyosiy mavzuning poetik ifodasi

Muqimiy o‘z she‘rlarida yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘laydi, kuylaydi. Bu fazilatlar u yaratgan lirik qahramon timsolida mujassamlanadi. Muqimiy she‘rlarida gavalangan lirik qahramon do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, maqsad yo‘lida sabot va matonat bilan kurashish kabi olijanob insoniy fazilatlarini kuylash, madhetish orqali kishilarda yaxshi xususiyatlarni, fazilatlarni tarbiyalashga intildi.

Muqimiy kuylagan lirik qahramon aniq tarixiy davr, ijtimoiy muhit mahsulidir. Bu qahramon o‘sha muhit bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, jamiyatning eng ilg‘or g‘oyalarini mujassamlantiradi. Muqimiy o‘zining turmush haqidagi istak-armonlarini lirik qahramon orqali ilgari suradi.

Istibdod va ijtimoiy adolatsizlik hukmronlik qilgan bir davrda Muqimiy g‘azallarini keng xalq ommasiga qadrli va aziz qilgan narsa shu ediki, uning g‘azallarida yaxshi xislatlar tarannum etilar, adolatli va baxtli zamon haqida orzu qilinardi. Bu she‘rlar shunday kunlarning kelishiga ishonch, hayot, baxt, istiqbol, haqidagi zo‘r hayotsevarlik tuyg‘ulari bilan xalqqa yaqin va tushunarli edi.

Lirik qahramondagi bu ulug‘ niyatlarni amlga oshirish, turmushni farovon va quvnoq qilish ikki yoqlama zulm hukmronlik qilgan adolatsiz, mudhish mustabid tuzum sharoitida mumkin emas edi. Shoir istaklari bilan hukmron muhit o‘rtasidagi qarama-qarshilik uning poeziyasida hasrat, nolish, shikoyat motivlarini tug‘dirdi. Shuning uchun Muqimiy lirikasida “baxtsizlik”, “tole zabun”lik, “zulm”, “jabru sitam” singari so‘z va birikmalar ko‘p uchraydi. Shoirning ko‘p she‘rlarida “charxi kajraftor” (teskari aylanuvchi falak)dan shikoyat qilinib, “bulbullar o‘rnini zog‘lar” olgani, “ahli tamiz”lar xor bo‘lib, “nodon”lar izzat ikromda ekanligi bayon etiladi.

Muqimiy mumtoz she‘riyatimizda keng tarqalgan bu “shikoyat motivi”ning mashhur namunalarini yaratdi. Bu motiv Muqimiy ijodida “tole, baxt” tushunchalari bilan bog‘lanib ketadi. O‘tmishda shoir bilan hukmron ijtimoiy muhit o‘rtasidagi qarama-qarshilikni turli shoirlar turlicha ifodalagan bo‘lsalar,



Muqimiy bu masalani “tole, baxt” tushunchalari orqali ifodalanadi. Demokrat shoir, bu tushunchalar orqali o‘zining mavjud tartiblardan noroziligini, hukmron doiralarning adolatsizligini anglatadi. Bu tipdagi she’rlarning eng xarakterli va tipik namunasi “Toleim” g‘azalidir:

Ohkim, afsus, emas hyech ishda rahbar toleim,

Vojgundur imtihon qildimki, aksar toleim.

She’rning “Ohkim” degan so‘z bilan boshlanishining o‘ziyiq shoir ahvoli ruhiyasini yaqqol his etish imkonini beradi. Shoir tole hyech bir ishda unga muvofiq kelmaganidan afsus chekadi. “Vojgun” – teskari ma’nosini bildiradi. Ijodkor tolei aksar hollarda unga teskari kelganini aytib kuyinadi.

Yuz tarafdin yetkurub gardi kudurat zangi g‘am,

Aylagay oinai tab'im mukaddar toleim.

Shoirning nolasi o‘rinli. Negaki, tolei ko‘ngliga g‘ashlik gardlarini va g‘am zanglarini yetkazib, uning tab'i oinasini mukaddar, ya'ni xira qiladi.

Har necha qilsam tavallo, zarra qilmas iltifot,

Ro‘zgardon, teskari, tobora battar toleim.

Ushbu baytda aytilishicha, har qancha tavallo qilsa ham, lirik qahramonga tolei zarracha ham iltifot qilmaydi. Aksincha, tobora teskari, battar bo‘la boradi.

Ro‘zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,

Bo‘lsa ravshan, bormukin tadbiri digar toleim.

Oxiri lirik qahramon shunday bir ahvolga tushib qolganki, “ro‘zgori tiyra, iqboli zabun, baxti qaro”. Shuning uchun u o‘zga tadbir – “tadbiri digar” qidiradi.

Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong‘a salom,

Daf‘atan ikki qulog‘ini qilur kar, toleim.

Lirik qahramonning tolei shunchalik pastki, u nogahon biror musulmonga salom bersa, alik olmaydi. Go‘yo iki qulog‘i kardek. G‘azaldagi bu xulosa she‘rga “toleim” radifi bejiz tanlanmaganini ko‘rsatadi.

“Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligining mualliflari yozishicha: “Ro‘zg‘orim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro” misrasi shoir kayfiyatini to‘liq ifoda qilishi bilan birga, bir formula sifatida uning ko‘p she‘rlarida turli variantlarda takrorlanib turadi”<sup>21</sup>

. Masalan:

Ey tabib, aylanma, dardim, bedavolardin biri,  
Rangi zardim, ko‘ru ko‘rma, kahrabolardin biri,  
**Ro‘zg‘orim tiyra, men baxti qarolardin biri,**  
Ohkim, holimni so‘rmas oshnolardin biri,  
Oshnolar, balki xeshu aqrabolardin biri.

(“Biri” radifli muxammasidan)

Umr o‘tar, yuz hayfkim, hosil qilolmay lahza kom,  
**Ro‘zg‘orim tiyra, baxtimdur qaro** monandi shom,  
Manga suvsangchi visoling bodasidin emdi jom,  
Bo‘ldi korim bori g‘am ostida jon uzmak mudom,  
Vahki, har kun mehnati bu koru bor o‘lturgusi.

(“Intizor o‘lturgusi” muxammasidan)

**Ro‘zg‘orim tiyra** to chand etmak, ey qoshi qalam,  
So‘rmayub ahvolimi o‘tmay necha ko‘rganda dam,  
Muncha ham dilxastalardin aylamay chun vahshi ram,  
Javru bedodu-sitam, behad chekib ranju alam,  
Kuylaringni birgina niyat qilolmay dog‘men.

(“Dog‘men” muxammasidan)

Do‘st bo‘ldim har kishiga, ko‘rdim anda ming jafu,

---

<sup>21</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: “Маънавият”, 2004. 99-бет.

Topmadim, dunyoni kezdim, munisu g'amxor man.

**Ro'zgorimdur parishon** zohiru botin xarob,

Charx davridin jigar xun, siynasi afgorman,

Ko'za sindurgan azizu, suv kelturgan xorman.

(“Maktubot”idan)

Muqimiy she'riyatidagi alam, hasrat va shikoyat motivlari umidsizlik belgisi bo'lmay, balki lirik qahramondagi zo'r orzular, ezgu g'oyalar va ularning amalga oshishiga bo'lgan zo'r umid natijasida tug'ilgan motivlar edi. Muqimiyning farovon hayot, xalq baxti, shaxs erkinligi haqidagi ezgu niyatlari o'sha tarixiy sharoitda, haqsizlik, zulm, adolatsizlik humronlik qilib turgan jamiyatda muttasil zarbaga uchradi va shoir ijodida nolish, hasrat, shikoyat motivlarining tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Saylov – adabiyotimiz uchun yangi mavzu. Chor hukumati Turkistonda saylovni joriy etdi. Yuzboshi, mingboshi, qozi saylanadigan bo'ldi. Lekin bu saylov poraxo'rlikka yo'l ochdi. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketdi. Muqimiyning “Saylov” she'ri shu haqda. Shoir bu mavzuni o'ziga xos mohirlik bilan tasvirleydi. U “hokimlar amri bilan” xalq boshiga tushgan bu “g'alva”ni “balo saylov”, “vabo saylov” deb ataydi. Haqiqatan ham, amalparast, xudbin amaldorlarning hayot-mamotini hal etuvchi bu voqeya natijasida qizib ketgan dahanaki kurashlarning butun og'irligi xalq zimmasiga tushar edi:

Sochib qarzu havola, pul ko'tarib, istayub mansab,

Bo'lolmay ko'p kishini sindirub, qildi gado saylov.

Mansab talashuv, makr-hiyla, aldov-firib asosiga qurilgan bu saylov, Muqimiy ta'rificha “musulmonlarning rangini kahrabo ayladi”. Shoir bu holatga bo'lgan e'tirozini quyidagicha ifodalaydi:

Taloshi joh aylab, ot chopib, olmay dame orom,

Musulmonlarni rangin ayladi chun kahrabo saylov.

El boshiga og'ir kunlarni solgan saylov jarayoni haqidagi fikrlarini shoir quyidagicha xulosalaydi:

Muqimiy, og'ridi boshlar, xaloyiq guftugo'yidin,

Shahar tinchib qolurdi, bo‘lsa-chi emdi ado saylov.

“To‘yi Iqonbachcha”da bir to‘y hangomasi tasvirlangan. Toshkentdagi bir boyning Iqondagi gumashta (xizmatchi)si to‘y qilmoqchi. Hamma yoqqa ovoza tarqatgan: unday qilaman, bunday qilaman!.. Nogoh Toshkentdan «xo‘jayin» «sizga to‘y qilishni kim qo‘yibdi» degan mazmunda sim qoqadi. «To‘ynugingdan agarda chiqsa tutun, Munda ber dastmoyalarni butun»,- deya tanbeh beradi. Imoga mahtal gumashta va uning xotini xursandchiliklarini zo‘rg‘a yashiradilar. yeng uchida to‘y o‘tadi. «Shiravorning o‘ziga ikki yuz so‘m bo‘lurmi?!» deb kerilib yurgan gumashta, tuzni ham «cho‘t»ga urganda, o‘ttiz uch tangalik to‘y qiladi.

She'rda mana shu «to‘y»ga tayyorgarlik va uning o‘tkazilishi kulgili bir shaklda ifoda etilgan:

Masalan, to‘y yashirincha o‘tishi kerak edi. Shoir uni shunday tasvirlaydi:

O‘choq ustida gar yo‘talsa biroq,  
yer edi yelkasiga katta kasov.

Biri qattiq chiqarsa ovozin,  
Bilmasin qo‘shni, deb tutib og‘zin.  
Yoki to‘yga aytishni ko‘raylik:  
yetti odamni o‘z mahallasidin,  
Qorni to‘q, yangi to‘n basallasidin,

Qildi shovqinlamay imo uyidin,  
Mundin, undin, yuqoridin, quyidin.  
Mana, mehmonlarga osh qo‘yilishi:  
Suzdi osh bir likavda uch kishidin,  
Ketti oshni ko‘rib hamma hushidin,

Osh misoli tabaqda ko‘z yoshi,  
Kurmaki ko‘p, guruchidin toshi

va hokazo.

Muqimiyning bir qator hajviy she'rlari borki, ular aniq, tayinli kishilar haqida. Masalan, “Hajvi Viktorboy”, “Hajvi Viktor”, “Voqyeai Viktor” she'rlari Viktor Dimitrovich Axmatov haqida. U Qo‘qondagi aka-uka Kamenskiylarning savdo idorasida ish boshqaruvchi bo‘lgan. 1891 yili Moskvadan arzon mol keltirib beraman deb, bir to‘da sodda o‘zbeklarning pulini olib, bedarak ketgan. Bu gap o‘z davrida butun Farg‘ona vodiysiga yoyilib, shov-shuv bo‘lgan.

Ikkinchi bir “qahramon” Laxtin degani ham shunaqa yulg‘ich, ucharlardan. U bir qator zavod, fabrikalar, bosmaxona ham ochgan edi. Shoirning “Dar shikoyati Laxtin” she'ri shu haqda.

“Maskovchi boy ta'rifida” she'ri mahalliy boylarimizdan Hodixo‘ja haqida hikoya qiladi. U raqobatga dosh berolmay, uquvsizlik qilib singan boylardan.

“Voqyeai ko‘r Ashurboy hoji”da qarib quyilmagan, hajga borib kelsa ham axloqi buzuqligicha qolavergan bir boyning qilmishi va u qo‘lga tushganida suvdan quruq chiqishi hajviy yo‘sinda tasvir etilgan.

Filologiya fanlari nomzodi Qo‘ldosh Parдавning aniqlashicha, Shoirning “Darig‘o mulkimiz” sarlavhali she'ri Muqimiy asarlar to‘plamining eng so‘nggi nashrida<sup>22</sup> 6 band, aslyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so‘ng joriy nashrlarga kiritilgan. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo‘lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirildi. Xuddi bunday holni muxammasning birinchi bandidagi misralarda ko‘ramiz:

Joriy nashrlarda:

Darig‘o mulkimizning sohibi ahli sharor o‘lmish,  
Shariat hukmi qozilar qo‘lida pur g‘ubor o‘lmish,  
Ba joyi amri ma'ruf, kori munkar oshkor o‘lmish,  
Hakimu, olimu, sohib fasohat xoru zor o‘lmish,  
Bu kunda kimki imonin sotar ul e'tibor o‘lmish.

---

<sup>22</sup> Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.: Фафу Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 356-бет.

Asliyatda<sup>23</sup>:

Darig‘o, dini islom hokimi ahli kuffor o‘lmish,  
Shariat ko‘z gusikim kufr gardidin g‘ubor o‘lmish,  
Ba joyi amri ma'ruf nahyi munkar oshkor o‘lmish,  
Sayid, sodotlar behurmat-u, ko‘p xoru zor o‘lmish,  
Bu kunda kimki imonin sotibdur, e'tibor o‘lmish.

Ko‘rinadiki, she'r butunlay teskari tahrir qilingan. Natijada, shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo‘lib qolgan. Aslida shoirning maqsadi bunday emasligi ma'lum. Bu misralarda shoir "*Shariat ko'z gusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish*"- deya sayid, sodotlar behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Muxammasning ikkinchi bandidagi fikrlar bundanda ta'sirliroq:

Sho'ro davridagi nashrlarda:

Zamona ahlining bir hayli bordur hayf insonliq,  
Shul insofi bilan ul aylagay da'vo musulmonliq,  
Birovga hiylayu makr aylayur, af'oli shaytonliq,  
Bo'lur xursand o'z qilg'on ishiga buyla nodonlik,  
Berib qiz keksa boyga faxrila xeshu tabor o'lmish.

Asliyatda:

Zamona ahlining bir firqasig'a hayf insonliq,  
Qilurlar, bilmagay "Alhamd", da'voyi musulmonliq,  
Birovga hiylayu makr aylamak af'oli shaytonliq,  
Bo'lur xursand bu shahrning bo'lg'onig'a kofiristonliq,  
Berib qiz kufr elig'a, ba'zilar xeshu tabor o'lmish.

---

<sup>23</sup> Мадаминов А. Янги баёз, Т.: 1997, 16-бет. Бу шеър матни А.Турдалиев хизмати билан нашр этилган "Бог аро" номли тўпламда тузатилган (Т.: Akademyashr, 2010, 243-бет).

Shoir “*Zamona ahlining bir firqasig‘a hayf insonliq*” deya taassuf qiladi. Jamiyatda fisqu-fasod ishlarning ko‘payib ketishini g‘ayridin kishilar va kofirlar aralashuvida deb bildi. Natijada xalqning ma‘naviy buzilishi, e‘tiqodsizlik, axloqsizlik, xiyonat, ichkilikbozlik avj oldi. Ayniqsa, shoirning “*Berib qiz kufr elig‘a, ba‘zilar xeshu tabor o‘lmish*” – degan fikrlari ham shoirning millatdoshlaridan nechog‘lik norozilik kayfiyatini anglatib turibdi.

Professor Hodi Zarifov Muqimiyning Andijon zilzilasi bag‘ishlangan “*Tarixi zilzilai Andijon az Mavlono Muqimiy Xo‘qandiy*” sarlavhali she‘rini tahlil qilgan ekan, undan sinfiy kurash alomatlarini izlaydi, Muqimiy va Muhyining ma‘lum muddat bo‘lib o‘tgan ijodiy sovuqchiligini dastak qilib, bunga dalil o‘laroq mazkur she‘rdan mana bu parchani ko‘rsatadi:

*Voqyeani insof qilib boqsangiz,  
Ba‘zi musulmonlarimiz ham yomon*<sup>24</sup>.

Olim bu bayt talqinida Muqimiyning Muhyiga qarshi qo‘yishga harakat qiladi. Aslida bu talqin asosiz ekanligini she‘rning sho‘ro davridagi Muqimiy asarlar to‘plamidan tushirib qoldirilgan baytlari ham ko‘rsatib turibdi. Taassufki, she‘r matni Muqimiy asarlari tabdil nusxalarida 19 bayt holda keladi. Aslida 27 bayt. 8 bayti esa tushirib qoldirilgan. Misol uchun, she‘rning 22-, 23-, 24-baytlari “*Turkiston viloyatining gazetisi*” 1903 yil, 22-aprel sonida quyidagicha berilgan:

*Tegdi kasofatlari bir yurtg‘a,  
Borki masal “Birniki mingga”, – degon.*

*Fe‘li badin Tangri mukofatig‘a,  
Tiyri jazoga qila qoldi nishon.*

*Nogah itob aylasa parvardigor,  
Hojat emas lashkaru tiyr – kamon*<sup>25</sup>.

---

<sup>24</sup> Zarifov X. Muḥammad Amin Muqimiy. Ҳаёти ва ижодиға оид материаллар. Т.: 1955, 23-бет.

<sup>25</sup> Шеър матни адабиётшунос А.Турдалиев томонидан 2010 йилда нашр этилган Муқимий шеърларидан тузилган “Боғ аро” тўпламига тўлик киритилган.

Muqimiyning bir qancha muxammaslarida ham bunday hol kuzatiladi. Muqimiy ijodi bilan mafkuraviy tazyiq ostida shug‘ullangan ustoz olimlar shoir she‘riyatining aynan shu qirralarini chetlab o‘tgan. Masalan, Abdurahmon Jomiyning “Mekuni yo ne?” radifli g‘azaliga Muqimiy bog‘lagan muxammas yaxshi ma‘lum. Qo‘lyozma manbalarda (Muqimiyning №9309-dastxat bayozida) bu muxammas 6 banddan iborat. Ammo joriy yozuvda nashr etilgan Muqimiy asarlarining barcha to‘plamlarida u besh band holida berilgan. Tushirib qoldirilgan satrlarga nazar solaylik:

*Baroi bar bishu nuqsu kamolam du malak oyad,*

*Pai farqi haromu to halolam du malak oyad,*

*Bashomi tiyra ba'di zavolam du malak oyad,*

*Nakiru Munkar az bahri savolam du malak oyad,*

*Zabonro dar javobash “Rabbi!” guyon, mekuni yo ne?*

Mazmuni: mening nuqsonu kamolimni bilish uchun ikki farishta keladi; halolu harom ishlarimni farqlash uchun ikki farishta keladi; zavolimdan (o‘limimdan) keyin ikki farishta keladi; meni savol-javob qilish uchun Munkar-Nakir – ikki farishta keladi; tilimni “Rabbim!” deb javob berishga qodir etasanmi yo yo‘qmi?

Ko‘rinib turibdiki, Muqimiyning taxmisi Jomiy baytiga uyg‘un va hamohang. Faqat diniy zamirda bitilgani uchungina mazkur bandni kitobxonlarga taqdim etish lozim topilmagan.

Muqimiy yaratgan lirik qahramon chinakam hayotiy qahramon bo‘lib, shoir she‘riyatining chuqur hayotiyligidan dalolat beradi. Ijodkor lirik asarlari shuning uchun ham o‘quvchilfr qalbidan chuqur joy egallagan. Shoir she‘rlarining xalqimiz tomonidan sevib o‘qilishi sababi shunda.

Muqimiy lirikasi o‘zining mana shu g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan xalq ruhiga juda yaqin edi. Uning lirikasi o‘zining shu ichki qarama-qarshiliklari mustamlakachilik davrida yashashga majbur bo‘lgan va har soat shu turmush zanjiri bo‘g‘ovlaridan qutulishga harakat qilgan, ozod va farovon hayotga intilgan, lekin o‘sha tarixiy sharoitda bu intilishlariga muyassar bo‘la olmagan mehnatkash



xalq ommasidagi, birinchi navbatda, keng dehqonlar tabaqasidagi qarama-qarshi kayfiyatni, psixologiyani yaxshi ifoda qilar edi. Muqimiy she'rlarining xalq o'rtasida keng shuhrat qozonishining va sevilib kuylanishining siri ham ana shundadir.

## XULOSA

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy she'riyatida badiiy shakl va mazmun uyg'unligi masalasini o'rganishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi bo'yicha olib borgan izlanishlarimiz natijalarini quyidagi xulosalar asosida umumlashtirish mumkin:

1. Muqimiy she'riy asarlarida badiiy shakl va mazmun uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan. Muqimiy mumtoz she'riyatning g'azal, murabba', muxammas, ruboiy, tuyuq, fard, sayohatnoma va maktubot janrlarida ijod qildi. Bitiruv malakaviy ishida shoirning sayohatnoma va maktubotlari tahlilga tortilmadi. Asosiy e'tibor lirik janrlarga qaratildi. Shoir she'rlari ichida g'azallar yetakchi o'rinda turadi. Shoir g'azallari orasida oddiy g'azallar, muvashshahlarva musajja' g'azallar uchraydi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shoir she'riyatining shakl jihatdan rang-barangligini ta'minlashga xizmat qilgan.

2. Muqimiy musammatning murabba' va muxammas shakllarida ijod qildi. Ijodkor "Tanlangan asarlar" ikki jildligida 20 dan ortiq murabba' o'rin olgan. Shoir murabba'lari ushbu janr talablariga to'liq javob berishi barobarida o'sha davrning mashhur san'atkorlari tomonidan qo'shiq qilib kuylangan.

Shoir 50 dan ortiq muxammaslar ijod qilgan bo'lib, ulardan 20 ga yaqini o'z qalamiga mansub. Qolgan qismi Abdurahmon Jomiy, Navoiy (5 ta), Fuzuliy (3 ta), Amiriy (5 ta), G'oziy, Nodim, Furqat (6 ta), Alma'iy (2 ta), Zavqiy, Kamiy, Umidiy, Muhayyir, Muntazir, Visoliy singari shoirlar g'azallariga bog'langan taxmislardir.

3. Muqimiy ijodida kichik she'riy shakllardan ruboiy, tuyuq va fard janrlarida ijod qildi. Bizgacha 1 ta ruboiy, 1 ta tuyuq, 9 ta fard yetib kelgan, xolos. Shoir "Tanlangan asarlar"ining ikki jildligidan o'rin olgan ushbu she'rlar Muqimiyning kichik she'riy janrlar ijod qilishda ham yuksak mahorat egasi bo'lganini ko'rsatadi.

4. Qaysi mavzuda ijod qilmasin, Muqimiy chuqur hayotiy-falsafiy mazmuni betakror badiiy talqin etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Natijada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan she'riy asarlar ijod

qilgan. She'rlarining mazmunan teran, badiiy jihatdan pishiq, talqiniga ko'ra o'ziga xos ekani uning salohiyatli ijodkor bo'lganidan, har doim yangilikka intilganidan dalolat beradi.

5. Ishq mavzusi Muqimiy she'rlarida yetakchi o'rin tutadi. Shoir she'rlaridagi ishq mavzusi talqinini o'rganish ularda mumtoz adabiyotimiz ana'anasiga xos oshiq, ma'shuqa va ag'yor (raqib) obrazlari o'ziga xos badiiy talqin etilganini ko'rsatadi. Ijodkorning orzu-armonlari, ruhiyatidagi g'alayonlar, ichki kechinmalari, quvonchi, iztirobi ana shu uchlik orqali ifodalanadi.

6. Muqimiy she'riyatidagi ishq talqini Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi "xoslar ishqiga"ga muvofiq keladi. Shoir mazhar – dunyo go'zalini vasf etar ekan, hazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda "pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga soladi va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'alib, bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra oladi". Bu jihatdan shoir mumtoz adabiyotimizdagi an'analarga sodiq qoldi va ularni rivojlantirdi.

7. She'rlarida ishqiy va ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritir ekan, Muqimiy butun iste'dodini insonni ulug'lashga, uning boy ichki olamini – siyratini, xulqu odobini vasf etishga, Yaratganni va o'zligini tanish, bu yorug' olamga kelishidan ko'zlangan asosiy maqsad-muddaoni anglash singari muhim masalalarni badiiy talqin qilishga intildi va bunga to'la erisha oldi.

8. Muqimiy shoir sifatida o'zidan salmoqli meros qoldirdi. She'riy asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shdi. Ijodkor she'riyati ko'p asrlik mumtoz adabiyotimiz an'alarining munosib davomi bo'lishi bilan birgalikda o'ziga xos xususiyatlari bilan adabiy-estetik tafakkur rivojiga qo'shilgan hissa bo'ldi, deyish mumkin. Shoir o'zbek milliy uyg'onish adabiyotida o'zidan munosib iz qoldirdi. Muqimiyning she'rlari, qaysi mavzuda yozilgan bo'lmasin, bugungi kunda ham yosh avlod ma'naviyatini o'stirish, ma'rifiy darajasini yuksaltirish ishiga munosib ulush qo'shib kelmoqda.

## Фойдаланилган адабиётлар

### I. Манбалар:

- 1.1. Муқимий Асарлар тўплами. Икки томлик. - Т.: Бадиий адабиёт, 1960, 1961.
- 1.2. Муқимий. Асарлар. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974

### II. Илмий адабиётлар:

- 2.1. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. - Т., 1976
- 2.2. Алишер Навоий. Маҳбубу-л-қулуб. – Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. Т.: “Фан” нашриёти, 1998
- 2.3. Аҳмедов С. Ўзбек адабиётида саёхатнома. Т., 1986
- 2.4. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро нашриёти, 1996.
- 2.5. Жалолов А. XIX аср охири - XX аср бошлари ўзбек адабиёти. – Т.: ФАН, 1991.
- 2.6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: “Зарқалам”, 2006
- 2.7. Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. – Т.: “Мумтоз сўз”, 2013
- 2.8. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970
- 2.9. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи . Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: “Ўқитувчи”, 1975
- 2.10. Миллий уйғониш ўзбек адабиётидан дастур (Тузувчилар Б.Қосимов ва б.). – Т., 1996
- 2.11. Миллий уйғониш. (Илмий мақолалар. Илмий-танқидий матнлар). – Т.: “Университет”, 1993
- 2.12. Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърини жанрлари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1979
- 2.13. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Т.: “Фан”, 1976
- 2.14. Сайфуллоҳ С. Наът ғазаллар моҳияти. /“Хазойин ул-маоний”даги наът ғазаллар. –Т.: “Ноширлик ёғдуси”, 2010

- 2.15. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Т.: “Хазина” нашриёти, 1996
- 2.16. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973
- 2.17. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: “Маънавият”, 2003
- 2.18. Ўзбек адабиёти тарихи. Бешинчи том. - Т.: “Фан”, 1980
- 2.19. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртарининг филология факультетлари учун дарслик. – Т.: “Маънавият”, 2004
- 2.20. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: “Академнашр”, 2013.